

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**Tarix fakulteti**

**MILLIY G‘OYA, MA‘NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA‘LIMI  
KAFEDRASI**

**Kuliyev Mirshod Hamza o‘g‘li**

**BRAHMANLIKDA INSON MA‘NAVIYATINI  
SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI**

**5220200 – Tarix bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi  
Malakaviy bitiruv ishi**

**Ilmiy rahbar**

**Boltayev A.A.**

**BUXORO – 2018**

## **MUNDARIJA**

### **BRAHMANLIKDA INSON MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI**

#### **KIRISH.**

**I-reja.** Qadimgi Hindiston tarixining qisqacha bayoni.....6

**II-reja.** Qadimgi Hindiston diniy marosimlari va inson  
ma'naviyati.....16

**III-reja.** Qadimgi Hindistondagi diniy e'tiqodlar – brahmanlik.....28

**XULOSA**.....63

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**.....68

**ILOVA**.....69

## KIRISH

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi.** Mustaqillik yillarida barcha jabhalardagi kabi insonlarning vijdon erkinligi, diniy qadriyatlar borasida ham katta o'zgarishlar ro'y berdi. Aytish mumkinki, xalqimiz yetmish yildan ortiq davr mobaynida kamsitilgan diniy qadriyatlarini qayta tiklash va o'rganish imkoniga ega bo'ldi. Bu nafaqat islom dini va unga e'tiqod qiluvchi jamoalar uchun balki hozirgi kunda O'zbekistonda mavjud bo'lgan 16 diniy konfessiya vakillari uchun ham quvonarli hol edi. Sobiq ittifoq davrida deyarli o'rganilmagan yoki cheklangan, ataylab yashirilgan va soxtalashtirishga harakat qilingan o'zining ko'p asrlik dini, tarixi, milliy an'analari va qadriyatlari qayta rivojlanish sari yuz tutdi.

Barcha dinlar qatori Hindiston zaminida vujudga kelgan va uzoq asrlik umri davomida son-sanoqsiz insonlarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirib ularning kundalik hayotlarini ma'lum diniy qoida va tartiblarga bo'yinsundirgan "Vedalar" dini ham insoniyat ma'naviy yutuqlaridan biri bo'lib, u e'tirofga sazovordir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, yurtimizdan yetishib chiqib, jahon fani va madaniyatiga salmoqli hissa qo'shgan buyuk allomalarimizning hayot yo'li, qoldirgan boy ilmiy-ma'naviy meroslarini o'rganishimiz va keng jamoatchilikka yetkazishimiz bu kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolaveradi.

**1. Muammoning o'rganilganlik darajasi.** "Brahmanlik" va uning inson ma'naviy, madaniy va ma'ishiy hayotida tutgan o'rni, uning vujudga kelish tarixi, rivojlanishi hamda urf-odat va marosimlari to'g'risida ko'plab olimlar izlanishlar olib borganlar. Bular qatoriga Avdiyev B.I.<sup>1</sup> Antonova K.A, Bongard – Levin G.M, Kotovskiy G.G.<sup>2</sup> Beshem A.<sup>3</sup> Rajabov R.<sup>4</sup> Qadimgi dunyo tarixi. – Toshkent, 2009. kabi larni aytib o'tish mumkin.

**Tadqiqotning maqsadi.** Ilmiy ishning asosiy maqsadi "Brahmanlik"da mavjud boy ma'naviy-ilmiy meros, undagi inson kamolotiga, jamiyat ravnaqi,

---

<sup>1</sup> Avdiyev B.I. Qadimgi Sharq tarixi.-T.:1964.

<sup>2</sup> Antonova K.A, Bongard –Levin G.M, Kotovskiy G.G. Istoriya Indii.-M.: 1979

<sup>3</sup> Beshem A. Chudo, kotorom bila Indiya. M.: 1977

<sup>4</sup> Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi. –Toshkent, 2009.

ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi qimmatli fikrlarni tadqiq etish, hamda tizimli tahlil qilishdir. ” Brahmanlik”ning hind madaniyati rivoji tarixida qo’shgan munosib hissani ko’rsatib, uning vujudga kelish va shakllanish qonuniyatlarini, yo’nalishlarini ilmiy o’rganish, shu asosda amaliyot uchun zarur takliflar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari.** Tadqiqotda quyidagi vazifalarni amalga oshirishga harakat qilindi:

- demokratik-huquqiy jamiyatda turli diniy konfessiyalar kabi “Brahmanlik” e’tiqodini ham keng o’rganish ilmiy, diniy va axloqiy dunyoqarash omili ekanligini ta’kidlash;

- “Brahmanlik” e’tiqodi inson ma’naviy dunyosining bir bo’lagi ekanligini tahlil qilish;

- “Brahmanlik”ning ma’naviy va ijtimoiy jihatlarini o’rganish asosida o’sha davr madaniy-ma’naviy muhitiga baho berish;

- “Brahmanlik”ni tadqiq qilish va shu asosda uning inson ma’naviy kamolotiga qo’shadigan hissasini aniqlash.

“Brahmanlik”ning bugungi diniy, etnokonfessional hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi o’rni va ahamiyatini ilmiy asoslash.

**Tadqiqot ob’ekti va predmeti.** “Brahmanlik” ta’limotining inson, borliq va ma’naviy hayotga munosabati va bu yo’nalishdagi g’oyalari va ta’limotlari tadqiqot ob’ektini tashkil etadi.

Tadqiqot predmeti “Brahmanlik” paydo bo’lgan davr ma’naviy, ijtimoiy va madaniy hayotidir.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Tadqiqotning ijtimoiy, huquqiy, diniy va tarixiy aspektlarda ilmiy yangilikka ega bo’lgan asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

- “Brahmanlik” ham jahon va milliy dinlar kabi o’zining inson ma’naviy kamolotiga xizmat qiluvchi g’oyalariga, tizimiga ham davlat va jamiyat to’g’risida, uni boshqaruv usullari haqida siyosiy qarashlari mavjud ekanligi aniqlandi;

- “Brahmanlik” bosh g’oyalarining bugungi kundagi nazariy hamda amaliy ahamiyati ko’rsatildi;

- Qadimgi Hindistonning “Brahmanlik”ning vujudga kelish davrlari bilan bog’liq madaniy-ma’naviy hayoti yoritildi;

**Tadqiqotning tuzilishi va hajmi.** Tadqiqot «Kirish», uchta reja, «Xulosa» va «Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati»dan iborat bo’lib, jami 69 sahifani tashkil etadi.

## ASOSIY QISM

### I REJA. Qadimgi Hindiston tarixining qisqacha bayoni

Hindistonning bepoyon hududi, iqlim sharoitlari, relyefi, joyi va tuprog'i jihatdan bir necha zonaga bo'linadi. Shimoliy-g'arbiy viloyatlar qadimda qalin o'rmonlar bilan qoplangan. Hind vodiysining tuprog'i juda hosildor. Shu yerda eramizdan avvalgi III ming yillikda Janubiy Osiyoda eng qadimgi shahar sivilizatsiyasi shakllandi. Hindiston shimoldan va shimoliy-sharqdan Osiyoning boshqa qismidan Himolay tog'lari bilan ajratilgan. Er. avv. II ming yillikda bu yerdan hind-yevropa qabilalari yo'li o'tgan.

Hind-gang tekisligining markaziy qismi qadimda «oriy»larning «muqaddas yeri» (Ar'yavarta) deb atalgan. Ikki buyuk daryoning oralig'ida va Gangning yuqori qismida er. avv. I ming yillikning birinchi yarmida veda sivilizatsiyasi shakllandi.

Gang daryosining shimoliy-sharqiy havzasida namlik darajasi juda yuqori va boy tropik o'simliklarga ega. Er. avv. I ming yillik o'rtalarida bu hududda keng miqyosda dehqonchilik ishlari boshlandi. Er. avv. I ming yillikning ikkinchi yarmida bu yerda Qadimgi Hindiston eng muhim siyosiy va madaniy markazlari vujudga keldi.

Hind-gang tekisligining Dekan (qadimgi hind tilida «Dan-ishna» - janub) yarim orolidan yassi tog'lar ajratib turadi. Dekan yarim orolida faqat eramizning boshlarida yirik davlatlar paydo bo'ldi. Orolning markaziy qismida Shri-Lanka (Seylon) o'rmonli tog'lik hudud. Orolning geografik o'rnini janubiy Hindiston qirg'og'i bilan muntazam aloqalar shartlab keladi.

Janubiy Osiyoning hozirgi aholisining katta qismi asosiy yevropoid irqiga mansub. Faqat yarim orolning janubiy qismi va Shri-Lankaning aholisi irqiy belgilariga qarab (badani, sochining qora rangi va boshqalar) avstroloidlarga yaqin turadi. Shimoliy sharqning qator qabilalari janubiy mongoloid irqiga mansub.

Shimolda hind-yevropa tillari (hind, bengal va boshqalar), janubda dravid (masalan, tamil). Dekan va shimoliy-sharqiy Hindistonning qator tillari janubiy-

sharqiy Osiyo, Tibetda va Xitoyda tibet-birma va mund tillari bilan yaqin turadi. Shri-Lanka aholisining ko'pchilik qismi hind-yevropa (singal) tilida ozchilik qismi dravid (tamil) tilida so'zlashadi.

Ma'lumki, hind-yevropa tillarida so'zlashuvchi oriylar Hindistonga er. avv. II ming yillikda kirib kelgandar. Singallar materikdan Shri-Lankada er. avv. I ming yillikda paydo bo'lganlar.

Janubiy Osiyoning qadimgi tarixi quyidagi davrlarga bo'linadi:

1. Eng qadimgi hind sivilizatsiyasi taxminan er. avv. XXIII-XVIII asrlar bilan belgilanadi (ilk shaharlar, davlatlarning paydo bo'lishi).
2. Er. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmida oriylarning paydo bo'lishi. Er. avv. II ming yillikning oxiridan er. avv. VII asrgacha «Veda» davri. Bu davrda yaratilgan muqaddas kitoblar «vedalar» nomi bilan mashhur.
3. «Budda davri». Er. avv. VI-III asrlar. Budda dinining paydo bo'lishi va tarqalishi davri. Bu davrda iqtisodiyotning yuqori taraqqiyoti, shaharlarni shakllanishi – yirik davlatlar Mauriylar umumhind davlatining tashkil topishi.
4. Er. avv. II asrdan eramizning V asrigacha. «Klassik davr» Janubiy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiyoti va ma'naviyatini gullab-yashnagan davri.<sup>5</sup>

Janubiy Osiyoda eng qadimgi bo'lgan hind sivilizatsiyasi Hind daryosi vodiysida (hozirgi asosan Pokiston hududi taxminan er. avv. XXII-XVI asrlar) paydo bo'lib, Qadimgi Sharq sivilizatsiyasidan paydo bo'lishiga ko'ra uchinchi hisoblanadi.

Hind daryosining g'arbida neolit davrida er. avv. VII-VI ming yilliklarda aholi dehqonchilik bilan shug'ullana boshlaydi. Vodiya paxsa uyli kichik qo'rg'onlar paydo bo'ladi. Dastlabki ikki shahar markazi Moxenjo-Daro va Xarappa, keyinchalik Chanxo-Daro va Kalibangan qazib ochiladi. Hozirgi vaqtda Hind vodiysi havzasida Hind sivilizatsiyasining bir necha yuz qo'rg'onlari ochilgan.

---

<sup>5</sup> Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi. –Toshkent, 2009, 168-169-bb.

Moxenjo-Daro, Xarappa va Kalibangan shaharlari qurilishi ikki qismli rejaga ega. Shaharning bir qismi sun'iy tepalikda qurilib devor bilan o'ralgan. Bu ma'muriy-diniy inshootlar deb taxmin qilinadi. Moxenjo-Daro qal'asida topilgan katta inshoot yoki hokim qarorgohi bo'lgan. Uning yaqinida diniy marosimlar uchun xizmat qiladigan basseyn topilgan. Xarappa qal'asida ulkan g'alla ombori qurilgan.

Moxenjo-Daro bir necha o'n ming kishi yashaydigan 2 kv. km. maydondan iborat. To'g'ri ko'chalar o'n metrgacha kenglikda qurilgan. Uylar 2 qavatli, kanalizatsiyaga ega. Shahar hunarmandchiligi to'g'risida aniq tasavvur hosil qilish mumkin. Kulolchilik, to'qimachilik yuqori darajada rivojlangan. Haykalchalar kichik hajmda, hokim-kohin, yalang'och ayolning (raqqosa deb taxmin qilinadi), jez haykalchalari topilgan. Ikki to'g'ri burchakli muhrlar topilib, ularning ko'pchiligida mifologik manzaralar tasviri tushirilgan. Bu yerda topilgan boshqa muhrlarga o'xshash buyumlar Hind vodiysidan uzoq bo'lgan Baxreyn orollari, Mesopotamiyadan, Eron va Turkmanistondan topilgan. Bu Moxenjo-Daro va Xarappaning qadimgi Sharq sivilizatsiyalari bilan keng aloqada bo'lganidan dalolat beradi.

Moddiy ma'naviyat va san'at yodgorliklari asosida, Hind vodiysi aholisining diniy tasavvurlari to'g'risida tushuncha hosil qilish mumkin. Muhrlardagi tasvirlar bu yerda yashagan aholining daraxtlar, hayvonlar, osmon jismlari e'tiqod qilganidan guvohlik beradi. Ona ma'buda haykalchasi dinning dehqonchilik xususiyatini ko'rsatadi. To'rt hayvon qurshovida Iog holatida turgan erkak ma'bud dunyoning to'rt tomonini hukmdori deb qaraladi.

Er. avv. XVIII asr oxirida Xarappa madaniyati tushkunlikka tushib, sekin-asta halok bo'ladi. Hind sivilizatsiyasining siyosiy va ijtimoiy tizimi to'g'risida faqat umumiy tasavvur qilish mumkin. Qal'a va shahar rejasi davlat hokimiyati mavjudligidan darak beradi. G'alla ombori va ishchilar uchun xonalar mavjudligi bu hududni aynan Mesopotamiyadagi mavjud ibodatxona, davlat xo'jaligi bilan o'xshashligini ko'rsatadi. Ishlab chiqarish taraqqiyoti darajasi,



shaharlar va yozuvning mavjudligi, uy-joy inshootlari hajmlarining katta-kichikligi aholi o'rtasida ijtimoiy tengsizligidan darak beradi.

Er. avv. II ming yillikning oxiri I ming yillik boshlarida Shimoliy Hindiston tarixning asosiy manbalari «vedalar» Hind diniy adabiyotining eng qadimgi yodgorliklaridir. Vedalar, madhiyalar, qo'shiqlar, qurbonlik aytishlari, muqaddas marosimni tushuntiradigan keng asarlardan iborat to'plamlardir. «Avesto» vedalari, tadqiqotchilarning fikricha, «Oriy» (ariya-so'zidan «olijanob») qabilalari tomonidan tuzilgan.

Tuzilish bo'yicha «vedalar» ilk veda (er.avv. I ming yillik boshlari) va so'nggi veda (er.avv. IX-VII asrlar) davrlariga bo'linadi.

«Rigveda» (hind-oriylarning vedalarini eng qadimgi qismi)da uchraydigan geografik nomlarga ko'ra, u Panjobda tuzilgan so'nggi veda matnlari shakllangan paytda oriy qabilalari hind-gang tekisligining butun markaziy qismiga tarqalgan edi. «Rigveda» yaratilgan davrida oriylarda sinyaiy jamiyat va davlat hali shakllanmagan edi. Iqtisodiyotda yirik qoramolchilikka asoslangan chorvachilik rivojlangan, dehqonchilikka e'tibor berilmagan. Oriylar mis va jezdan foydalanganlar, uy-joyni qamish va loydan qurganlar.

Gang daryosini yuqori qismi, Gang va Jamna o'rtasidagi yerlar «Mahabxarat» epik asarining sujetini tashkil qiladi. Ijtimoiy tashkilot qabila bo'lgan, qabila boshlig'i roja-harbiy boshliq va yo'lboshchi sifatida o'z qarindoshi va xizmatkorlariga tayangan. Qabila uch tabaqa: kohinlar, harbiylar va oddiy jamoatchilarga bo'lingan. Muhim masalalar yig'ilishda hal qilingan. Vedalarda ko'rsatilgan qo'shnilar bilan podalarni haydab ketish mumkin. Urushlar oddiy hal bo'lgan. Veda tilida «urush» (gavishta) so'zi «sigirlarni bosib olish» ma'nosini bildiradi. Ilk veda davrida qulchilik mavjud bo'lgan. Qadimda hindcha «dasa» qulni bildirgan so'z ko'pgina veda madhiyalarida uchraydi. Asirlar qulga aylantirilgan. Qul erkak veda va dostonlarda kam tilga olinadi, ayol qullar to'g'risida ko'p so'zlanadi.

So'nggi veda davrida iqtisodiyot, ijtimoiy-siyosiy tuzumda keskin o'zgarishlar yuz bergan. Dehqonchilik rivojlanib, hind-gang vodiysida keng

dalalar o'zlashtiriladi, daraxtning qattiq yog'ochidan omoch yasay boshlanadi. Eshaklar asosiy yuk tortish vazifasini o'tagan. Sutlik ovqat kundalik yumish bo'lgan. Bayramlarda chorva mollari mo'l-ko'l qurbonlik qilingan.

Temirdan faqat kamon o'qi, nayza uchlari tayyorlangan, uylar yog'och va bambukdan qurilgan, «Rigveda» (hind-yevropaliklarning mashhur kitobi) davrida harbiy yo'l boshchilar aravalarda jang qilganlar. Mahabxaratda yengil jang aravalari to'g'risida eslatiladi. Jang aravalarida poygalar o'tkazilgan. Diniy va epik asarlarda aholining asosiy qismi to'g'risida ma'lumotlar juda kam.

Erkin va to'la huquqli dehqonlar jamoani tashkil qilib bir yoki bir necha qishloqda yashaganlar. jamoatchilar qo'shni va qon-qarindosh aloqalar asosida birlashganlar. Eng muhim masalalar urug' yig'inlarida hal qilinib, butun jamoa nomidan asosiy marosimlar bajarilgan.

Qishloq aholisining bir qismi to'la huquqli bo'lmagan. Ular boshqa joydan kelgan kishilar bo'lgan. To'la huquqli bo'lmaganlar xizmat ko'rsatadigan sohalar, jumladan, hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar. Qishloqda keskin mulkiy tabaqalanishga jamoa ijki aloqalarining o'ta mustahkamligi qarshilik ko'rsatgan edi. So'nggi veda davrida o'z-o'zini boshqarish qishloq jamoasi bilan cheklanib qoladi. Qabila va qabilalararo munosabatlardagi barcha masalalar hakim va yo'l boshchilar vakolatiga kiradi.

Er. avv. II ming yillik oxiri I ming yillik boshlarida Shimoliy Hindistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti jamiyatining «kohinlar», qabila harbiy zodagonlari, kshatriylar to'la huquqli xalq, vayshi jamoani pastki to'la huquqli bo'lmagan aholi qismi shudra (qullar) kabi to'rt qatlamini vujudga keltiradi.

Har bir qatlam epik toifalar – varna (so'zma-so'z «nav»)ga aylanadi. Har bir Varna vakilining merosiy mavqeyi ularning mashg'uloti va diniy majburiyatlarini belgilagan. Kohinlik va o'qituvchilik majburiyati braxmanlarga, jang qilish va boshqarish kshatriylarga mehnat qilish, shudralarga uch oliy varnalarga so'zsiz xizmat qilish majburiyati yuklatilgan. Bu toifaviy mavqye merosiy bo'lib o'tgan. Har bir Varna o'z huquqi, o'z ovqati,

kiyimi, uy anjomi, kiyimini kangi va boshqalar qat'iy belgilangan edi. Braxmanlar turli varnalar ilk odam Purushi jismini turli qismi (braxmanlar og'zidan, kshatriylar qo'lidan, vayshiyalar sonidan, shudralar tovoni)dan yaratilgan deb o'qitar edilar.<sup>6</sup>

Hindistonning eng qadimgi dini totemizmdan, tabiatni ilohiylashtirish, ota-bobolar ruhiga topinishdan boshlanadi. Vedalarda tabiatga topinish yaqqol aks etganini ko'ramiz. Chunki Vedalar tuzilgan vaqtda hindlar quyoshga (Suriya) sig'inganlar, Varuna nomi bilan osmonni ilohiylashtirganlar, muqaddas olovga (Agni), shuningdek, momaqaldiroq xudosiga (Indra) topinganlar. Dehqonchilikning rivojlanib borishi bilan tabiatning ishlab chiqarish kuвлari va umuman, hosildorlik ma'budasi to'g'risida tasavvur paydo bo'lgan va tarkib topgan, ular bu ma'budani Aditi deb ataganlar va unga «hammaning onasi», «hamma narsaning mohiyati», «adabiyot», «yaratilgan va yaratuvchi» deb har xil qo'shimcha nomlar berganlar. Shuning uchun ham xudolarni «Aditining farzandlari yoki o'g'illari» deb ataganlar. «Aditi» nomidan olingan «aditya» so'zi «xudolar» ma'nolarini anglatadigan bo'lib qolgan.

Bu qadimgi tabiatga topinish qishloq jamoalarigi xos bo'lgan ideologiyani tom ma'nosi bilan aks ettirgan, bu jamoalar ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar «ishlab chiqarish mexanizmining soddaligi» bilan farq qilgan.

Qadimgi Hindistonda patriarxal oila hayoti bilan bog'langan olovga topinish odati, ayniqsa, keng tarqalgan. Ota sifatidagi olov uyning katta oilaviy jamoalarida ham, yakka oilaning xususiy xo'jaligida ham oila xo'jayini – patriarx (grixapati) boshliq bo'lgan uyda (grixya) oilaviy hayotning markazi bo'lgan. Biroq olov xudosi Agni sharafiga yozilgan va Rigvedada saqlangan gimnlardan birida, olovga topinish «yog'och parchalari bir-biriga qattiq ishqalanib» o't hosil qilish usuli birinchi marta kashf etilgan qadimgi zamonlarga oiddir, deyiladi. Odamlarga birgalikda hayot kechirishga imkon bergan olovning xo'jalik ahamiyatiga katta baho berib, qadimgi hindular olovni

---

<sup>6</sup> Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi. –Toshkent, 2009, 171-174-bb.

«qishloqning boshlig'i» (vishpati) deb ataganlar. Maxsus kohin (atxarvan)lar himoyasida doimiy yonib turadigan muqaddas olovga topinish shu tariqa vujudga kelgan. Uydagi olovga topinish bilan birga, osmondagi olovga ham topinib, uni «ilohiy ota» - Dyaus-Pitar deb ataganlar. Olovga topinish ota-bobolar e'tiqodi bilan juda yaqindan bog'langan bo'lib, har bir uydagi oila boshlig'i (patriarx) ota-bobolariga topingan. Masalan, Manu qonunlarida aytilishicha, «ota-bobolar – dastlabki xudolardir; ular g'azabdan xoli bo'lganlar, mutlaqo pok, doimo bekamu ko'st, nizodan yuz o'giradigan va katta fazilatlar egasi» bo'lganlar.

Ota-bobolar e'tiqod urug'chilik tuzumi davrida vujudga kelgan va katta patriarxal oilalarning boshliqlari bo'lgan boy aristokratlar hokimiyatining obro'sini ko'tarish quldorlik jamiyatini mustahkamlash uchun xizmat qilishi lozim edi. Shu tufayli braxmanlarning qonunlar to'plami Manuda, ayniqsa, ota-bobolarning qadimgi e'tiqodi qayd qilib ko'rsatilgan: «Ikki qayta tug'ilganlar uchun ota-bobolar ruhiga sig'inish xudolarga sig'inishdan ko'ra muhimdir». Ota-bobolar ruhiga sig'inish din va e'tiqodning eng keyingi va ancha murakkab formalari hali ishlab chiqilmagan, eng keyingi dogmatika hali ma'lum bir shaklga solinmagan juda qadim zamonlardan boshlanadi. Shu sababli Manu qonunlarida: «Ota-bobolar har tomoni ochiq, tabiatan toza yalangliklarda, daryolarning bo'ylarida, pastqam yerlarda qilingan qurbonlardan hamisha rozi bo'ladilar» deyiladi. Bu esa, chinakam ota-bobolar – ota, buva va katta buvaga sig'inishning o'zginasidir.

O'sha diniy qonunlarda yana bunday deyiladi: «Otasi o'lib, buvasi hali hayot bo'lgan kimsa, o'z otasining nomidan keyin katta buvasining nomini tilga olishi kerak». Muqaddas Veda kitoblarida ota-bobolarga murojaat qilib aytilgan qadimgi qo'shiqlar saqlangan. Eyen qadimgi diniy madhiyalar qadimgi patriarxal turmush davriga oiddir. Ota-bobolar ruhiga sig'inish qadimgi Hindistondagi turg'un hayotda juda uzoq vaqtlargacha saqlanib kelgan. Bu qadimgi ota-bobolar ruhiga sig'inish odatining hindularning ancha keyin paydo bo'lgan (eramizning V asrida) «Shakuntala» dramasida ham saqlanib qolgan.

Podsho Dush'yanta farzandi yo'qligidan nolib bunday deydi: «Afsus, Dush'yantaning ota-bobolari xavf ostida. Farzandsizman, ular bilmaydilarki, men o'lganimdan keyin bolalarning qaysi biri munosib qurbon beradi va ulardan kimning ko'z yoshi mening ko'z yoshimga qo'shiladi».

Chorvachilik va ilk dehqonchilik davrida dinning qadimgi formalari bo'lgan tabiatga topinish va ota-bobolar ruhiga sig'inish, ayniqsa, keng tarqalgan bo'lsa (buni Rigvedadagi eng qadimgi madhiyalar ko'rsatadi), quldorlik jamiyati va davlat tashkil topgan davrda bu topinishlar, sinfiy tuzumni mustahkamlashga qaratilgan yangi diniy e'tiqodlar bilan almashinadi. Qadimgi tabiat xudolari asta-sekin davlat, podsho va podsho hokimiyatining himoya qiliuvchi xudolariga aylanadi. Bu narsa, azallari momaqaldiroq va yashin xudosi deb hisoblangan Indra e'tiqodida juda ravshan ko'rinadi. Qadimgi diniy poeziyada Indra o'zining momaqaldiroq boltasi bilan ajdarni o'ldirib, osmon suvlarini undan ozod qiliuvchi dahshatli xudo qilib tasvirlangan. Shuningdek, Indra hosildorlik xudosi deb ham hisoblangan. Ammo keyinchalik u yerdagi kuchlar xudosi, podshoni himoya qiluvchi xudoga aylangan. Indra aristokratiya, davlat va podsho hokimiyatining himoyachisi deb hisoblanadigan bo'lgan. Shu sababli Indrani ikkinchi Varna sostaviga kirgan kshatriyalar, aristokrat-jangchilar, ayniqsa, izzat-hurmat qilganlar, odatda podsho va knyazlar dinastiyasiga asos soluvchilar ana shu ikkinchi varna namoyondalari orasidan chiqqanlar. «Indra» so'zining o'zi «knyaz» yoki «podsho», «janob», «hokim» ma'nolarini (semit tillaridagi «malik» yoki «adon» kabi) anglata boshlagan.<sup>7</sup>

Markazlashgan yirik davlatlar tashkil topa borgan sari yagona xudoga topinish elementlari ham paydo bo'la boshlaydi. Yerda yagona podsho bo'lgani kabi, osmonda ham yagona xudo bo'lishi lozim bo'lgan. Shunday qilib, yagona xudo to'g'risida tasavvur paydo bo'lib, bu xudoni Prajapati (odamni, odamlarni va xalqni yaratuvchi) deb ataganlar. Olamni yaratgan bu yagona xudoning yorqin tasvirini Vedalardagi madhiyalarda ko'ramiz: «U yorug' osmonni,

---

<sup>7</sup> Авдиев В.И. Қадимги Шарқ тарихи. –Тошкент, 1964, 700-б.

mustahkam yerni, olam nurini va fazo orqali o'tib butun olamni o'rab turgan osmon gumbazini yaratgan... U hamma xudolarning yagona xudosidir».

Diniy urf-odatlar murakkablashib borishi bilan birga maxsus kohinlik ham vujudga kelib, bu kohinlik asta-sekin mustahkam kastaga birlashib ketadi. Braxmanlarning alohida ideologiyasi paydo bo'ladi va braxmanlar kastasining mustahkam tashkiloti ham vujudga keladi. Qadimgi diniy to'plamlar – vedalar, diniy-filosofik faoliyat xiyla taraqqiy etishi natijasida paydo bo'lgan sharh va izohlar (Upanishadlar) bilan to'lib ketadi. Braxmanlar ta'limotiga ko'ra, faqat braxmanlar kastasiga mansub kishilargina muqaddas diniy marosimlarni o'tashi, odamlarga diniy ta'lim berishi mumkin bo'lgan. Braxmanlar kastasi ichida xudoga topinish jihatidan alohida darajalar bo'lgan. Braxmanlarning murakkab ishlangan maxsus qoidalari bo'lib, shogirdlarning ham, ustozlarning ham bu qoidalarga rioya qilishlari lozim bo'lgan. Har bir shogird o'z ustozini (guru) ga batamom bo'ysunib, qattiq intizomga asoslangan shogirdlik davrini o'tashi kerak bo'lgan. Shogird muqaddas kitoblarni, duolarni, qurbonliklar qilishni, braxmanlar tuzumining rasm-odatlari va qonunlarini o'rganishi kerak edi. Bularni uzoq vaqt o'rganganidan keyingina u kohin bo'lish huquqiga ega bo'la olgan. Kohinlarning biqiq kastasi ana shu tariqa vujudga kelgan va mustahkamlanib borgan.

Biroq odamning sinchkov fikri braxmanlarning bu qadimgi dinlarining negizlariga putur yetkaza boshlaydi. Asta-sekin diniy filosofik ta'limotlar paydo bo'lib, bu ta'limotlarda qadimgi dinning haqiqatligiga ishonmaslik belgilar ko'rina boshlaydi. Qadimgi din va kohinlik o'rgatib kelgan aqidalarni haqiqatligiga ishonmaslik belgilar ko'rina boshlaydi. Qadimgi din va kohinlik o'rgatib kelgan aqidalarning haqiqatligiga shubha to'g'iladi. Odamlar oxiratga ham shak-shubha bilan qaraydigan bo'ladilar. Chunonchi, diniy-filosofik traktatlardan birining avtorini: «bu dunyoni tashlab ketish yaxshi emas, chunki biz narigi dunyoda yashaymizmi, yo'qmi kim biladi», deydi.

Oxiratning borligiga shak-shubha qilib aytilgan achinish ohanglari hatto braxmanizmga asos solgan Yajnavnya asarlarida ham ko'rinadi. «O'lgandan

keyin ong bo'lmaydi», chunki «kesib tashlangan daraxt yana o'z ildizidan o'sib chiqadi, ammo ildizini ajal qirqqan odam yana qaysi tomirdan o'sib chiqar ekan? Urug'idan o'sib chiqadi, deya ko'rmang, chunki urug' faqat tirik jondangina bo'ladi. O'lgan kishi yana qaytib «tug'ilmaydi».

Shu tariqa qadimgi braxman dini va u bilan birga qadimgi kasta sistemasi ham sekin-asta o'z ichidan buzila boshlaydi. Braxmanlar diniga va kasta sistemasiga qarama-qarshi o'laroq buddizm maydonga chiqadi, rivoyatlarga ko'ra, buddizm eramizdan avvalgi VI asrda vujudga kelgan va Ashokaning ediktlariga qaraganda, eramizdan avvalgi III asrdayoq juda keng tarqalgan. Hindiston quldorlik davlatida ekonomika va savdo anchagina darajada yuksalayotgan bir davrda hindistonning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga xalaqit bergan braxmanizmga hamda qotib qolgan kasta sistemasiga qarshi ideologik norozilik sifatida buddizm vujudga keladi. Buddizm braxmanlar kastasiga, ayniqsa, keskin qarshi chiqadi. Budda ta'limotida braxmanlar kastasida tug'ilgan har bir kishini kohin deb tan olish fikriga qarshi norozilik ifodalangan; braxmanlar kastasida tug'ilgan har bir kishi, jamiyatda oliy o'rin egallash imtiyoziga ega bo'lgan.

## **II REJA. Qadimgi Hindiston diniy marosimlari va inson ma'naviyati**

Vedalar dinidagi asosiy urf-odat, asosan, qurbonlik keltirish (Yadjna) bo'lgan bo'lsa, hinduizmda xudojo'ylik (pudja) edi. Biroq xudoga ikona ko'rinishida (archa) sig'inishadi, turli diniy marosimlar uyushtiriladi. Pudja duo bo'lmay, aslida xudoni hurmatlab, manzirat aylash edi. Unga hurmatli mehmon singari oyog'ini yuvish uchun suv, gullar, chaynash uchun betel yaprqlari taqdim etilgan. Ertalablari chig'anoqlar tovushlari va musiqa orqali uni uyg'otishar edi. Unga gulchambarlar taqishgan, chiroqlarni maxsus qimirlatib, unga odatda guruch va mevalar bilan boqishgan. Ko'pgina ibodatxonalarda uni yotog'iga olib borishgan. Katta ibodatxonalarda unga atab raqqoslar raqs tushishgan.

Birlamchi vaqtlarda ibodatxonalar uncha katta bo'lmagan yog'och qurilmalardan iborat bo'lib, uning ichida qo'pol ishlangan obraz yoki fetish bo'lgan. Vedalar dinida ibodatxonalar hych qanday rol o'ynamagan va miloddan oldingi vaqt bilan sanalashtirgan qatlamlarda arxeologlar biror-bir ibodatxona topishmagan, balki ular chet elliklar ta'siri ostida paydo bo'lishgandir.

Har xolda Guptalar davrida Hindistonda hozirgidek ibodatxonalar ko'payadi. Ibodatxona markazida asosiy xudoning yashash joyi bo'lgan. Ko'pincha ibodatxona yaqinida hovuz yoki daryoga tushish uchun narvon bo'lib, marosimiy yuvinishlar barcha vaqtlarda ham muhim rol o'ynagan, diniy urf-odatning asosiy qismi bo'lgan. Ibodatxonada katta zal ham bo'lib, xohlovchilar u yerda epos, purana va boshqa diniy adabiyotlarni o'qish mumkin bo'lgan.

Vedalar davridagi hayvonlarni qurbonlikka keltirishning boshqa xil turlari paydo bo'la boshlaydi. Qurbonlikka ko'pincha ho'kizlar, echki va xo'rozlar keltirilgan. Ayrim hollarda insonlarni qurbonlikka keltirish holatlari ham bo'lib, har qanday jinoyatchini qurbon qilish, uning ruhini gunohlardan yuvish deb hisoblangan. Shunday qilib, ko'pchilik holatlarda jinoyatchini qurbonlikka keltirishsa, ayrim hollarda qurbonlar shubhali tarzda topilgan. Matnlarda aytilishicha, qizlarni o'g'irlashib, yashirincha qurbon qilishgan – Durga ibodatxonasida xuddi shunday marosimlar har kuni takrorlangan.



Qadimgi Hindiston arxitekturasining yodgorliklari o'ta kam saqlanib qolgan. Xarappa madaniyati va Mauriylar davri oralig'idan bizgacha biror ahamiyatli arxitektura yodgorligi saqlanmagan. Bu esa o'sha davrdagi binolarning kam qismi toshdan yasalganligini ko'rsatadi.

Stupalarning proobrazlari tuproqli qabr tepalik bo'lib, yerlik aholi tomonidan qadrlangan. Buddizm stupalar kultini o'ziga singdirgan va Ashoka Budda sharafiga atab butun Hindistonda stupalar qurdiradi. Faqatgina birgina Nepaldagi stupa qanday bo'lsa, shundayligicha saqlangan.

Stupalar katta yarimsfera shaklidagi imorat bo'lib, billurdan ishlangan muqaddas narsa saqlanadigan idishda Buddaning qoldiqlari saqlangan. Stupa devorlarining ichki qatlami xom g'ishtdan terilgan, tashqi qavati esa pishiq g'ishtdan terilib, qalin qatlamli shtukaturka bilan qoplangan. Stupaning uchki qismiga yog'och yoki toshdan qilingan soyabon qurilgan, tashqarisi yog'ochdan qurilgan devor bilan o'ralgan.

Mauriylar va Guptalar sulolalari orasidagi davrda buddaviylik arxitekturasiga ko'p miqdorda mablag' ajratililib, ilk qurilgan stupalar bir muncha kengaytirilib bezatilgan. Xuddi shu stupalardan 3 tasi ahamiyatga molik: Bxarxute, Sanchi va Amaravati. Bxarxuta stupasi er. avv. II asrning o'rtalariga taalluqli bo'lib, asosan, o'zining haykallari bilan qiziqarlidir. Stupaning o'zi hozirgacha yemirilib ketgan. Sanchi stupasi, aksincha, Qadimgi Hindiston arxitekturasini yodgorligi eng namunaviy ko'rinishidir.

Er. avv. II asrda Sanchidagi eski stupa ikki baravarga kattalashtiriladi. Hindistondagi bir qancha stupalar Sanchi stupasidan kattaroq edi, lekin Shri Lakanda ular ulkan razmerlarga yetadi.

Eng mashhur stupalardan Amaravatidagi, Sarnatxdagi, Nalanddagilar edi. Varanasi yaqinidagi ulug'vor Sarnatx stupasining ichki qismi saqlangan, xolos. Bu yerda Budda birinchi marta xutba o'qigan.

Asosiy stupalar atrofida ikkinchi darajalilari joylashib, ularda ko'pincha monaxlar kul qoldiqlari saqlangan.

Stupa va ularni o'rab turgan darvoza va to'siqlardan tashqari Guptalar davrigacha saqlangan arxitektura yodgorliklardan sun'iy g'or qolgan bo'lib, ulardan diniy maqsadlarda foydalanganlar. Ulardan eng qadimgilari o'ta primitiv bo'lib, hali toshtaroshlik ishi endigina tetapoya qilganligidan dalolat bergan. Masalan, xuddi shunday Barabaradagi ikkita g'orlar bo'lib, ular Ashoka tomonidan adjivika monaxlariga taqdim etilgan edi.

G'or ibodatxonalari va monastirlar keyingi davrlarda Hindistonning ko'pgina rayonlarida uchratiladi, lekin eng katta va mashhurlari Satavaxanlar davrida hamda ularning merosxo'rlari davrida G'arbiy Dekanda o'yib quriladi. Dekan g'orlaridan eng qadimgisi Bxadjda, Karlada, Adjantadadir.

Eng ilk mustaqil diniy inshoot, bizgacha saqlanib qolganlaridan Jaypur yaqinidagi Bayratdagi ibodatxona bo'lib, birlamchi davrda budda stupasi ko'rinishida bo'lgan. U er. avv. III asrda g'isht va yog'ochdan qurilgan edi. hozirda undan faqat fundamenti qolgan, xolos.

Qadimgi shahar Takshashila joyidan topilgan Djandial ibodatxonasi diniy arxitekturaning keyingi davrini ochib beradi. Guptalar davrigacha bo'lgan ibodatxonalar yog'och, loy va g'ishtdan qurilganligi sababli ularning elementlari saqlanib qolingan.

Hinduizmning standart tipidagi ibodatxonalari eramizning VI asridan boshlab qurila boshlaydi.

Hind diniy falsafasida qayta tug'ilish haqidagi ta'limotning nazariy asosi ishlab chiqiladi. Bu – karma edi. Karma tushunchasi murakkab hamda hind falsafasining turli oqimlarida turlicha talqin etilgan. «Karma qonunlari, - deb yozadi hind falsafasining tarixchilari S.Chatterdji va J.Batta, - individning barcha ishlari, yaxshi yoki yomon bo'lsin, uning hayotida keyingi holalarni belgilab beradi»<sup>8</sup>.

Mantiqan,vedizm g'oyalarining kelgusi istiqboli ko'p jhatdan oriylarning mahalliy aholi bilan bo'lgan munosabatlariga bog'liq kechdi.Kundalik turmush

---

<sup>8</sup> Токарев С.А. Религия в истории народов мира. –М., 1965, 319-бет.

taqozolari fotihlarning hindlar bilan asta-sekin qo'ni-qo'shnichilik aloqalarini o'rnatishga majbur qilganligini hisobga olganda, oriya din doirasining kengayishi, avvalo, ijtimoiy va bora-bora ma'naviy yaqinlashuv bois uning mahalliy e'tiqod an'analarini bilan uyg'unlashuvidan boshlangan.

Masalan, "Veda an'alariga sodiq iqtidorli brahmanlarning janubiy o'lkalarga tashrifi Tamil podsholari e'tiborini o'ziga tortdi. Yangi e'tiqod shakllarini qabul qilinishi yerlik taqvodorlarga ilohiy mukofotlardan va'da berardi. Bu ishlarda, vedanta maktabini yangicha talqin qilgan "Adveyta" falsafasining targ'ibotchisi Shankaracharyaning ko'rsatgan xizmatlari bemisil bo'ldi" (184:1856). Shu tariqa vedizm va aborijen kulturning bir-biriga moslashuvi "Ilohiy unsur"ning o'zlashuvi, eramizdan avvalgi birinchi mingyillikdan Hindistonda brahmanizm davrini boshlab berdi.

Ushbu ta'limotning falsafiy manbai bo'lgan "brahmanlar" tarkibida, asosan vedalar tafsiri bilan qadimgi hind jamiyati hayotiga doir tarixiy voqealar va rivoyatlarning nasriy matni joy olgan edi. Keyin, tugal brahmanizm da vedalar falsafasidan farqli birmuncha shunday yangi g'oyalar paydo bo'ldiki, natijada ta'limot adabiyoti dindor uchun bajarilishi vojib ko'rsatmalar, rasm-rusumlar hamda tabiat hodisalari tafsiri bilan boyitildi ya'ni, "Aytareya brahman" da tabiatdagi biri ikkinchisi bilan almashib turadigan hodisalarning o'z substansiyasi-Brahma atrofida sodir bo'lishi qayd etilib, ularga atab qanday duolar o'qilishi kerakligi uqtirildi. Manbada shuningdek, insonga xos xususiyatlar va ularning hayotidagi e'tiborli voqealar, tabiat qo'ynida yuz beradigan hodisalarga ko'chirib tavsiflandi. "Shapatha brahman" da so'z va fikr, ruh va hissiyot o'rtasidagi aloqalar ta'riflanib, yana ularga qo'shimcha tarzda quyidagi savollarga javob izlanadi:

"Insonning mohiyati o'zi nima?", "Hissiyotlar ichida qay biri insonga moddiy dunyo haqidagi eng to'g'ri ma'lumotni yetkaza oladi-ko'rishmi yo eshitish? Balki unisi ham, bunisi ham emas, tafakkurdir?" (44:456)

Dinshunoslikda brahmanizm falsafasiga bo'lgan munosabatlarning eng xarakterli tomoni "Ta'limotning tabiat qudrati va hodisalari ta'siridan asta uzoqlashib, uning o'zidan tashqaridagi tayanchi-Asosining doimiy sig'inish

obyektiga aylanganligi”. Yoki brahmanizmning hind diniy e’tiqodi rivojida tutgan muhim o’rni insonning faqat o’ziga ta’sir ko’rsatayotgan tabiat kuchlarini emas, balki ularni yaratgan boshqaruvchisini ham anglay boshlaganligi bo’ldi. Va oqibatda brahmanlar matni e’tiqodda har qanday e’tiroz va inkorlardan tashqari hisoblanuvchi ilohiy iroda mavqega haqdor yagona diniy manba etib belgilandi.

Brahmanizm adabiyoti ichida upanishadlar o’z falsafiy qamrovi bilan hind dinidagi mavjud bari oqimlar uchun o’ziga xos so’nggi yirik manba sifatida shuhrat qozondi. Miloddan avvalgi III-II asrlardagi jami 12 qismdan iborat “Sirli ta’limotlar” matning birinchi namunalari bo’lgan “Shvetashvata”, “Mandukya”, “Prashna” va “Maytri” upanishadlardan keyin ham mazkur yo’nalishdagi asarlarni yaratish an’anasi davom etdi. Ya’ni “Brahadaranyaka”, “Chhandogya”, “Kausitaki”, “Kena”, “Katha”, “Mandaka” va “Isa”. Bu jarayonning eng yorqin misoli, boburiylar sulolasining Hindiston tarixida alohida e’zozlangan vakili Akbarshoh farmoni bilan “Alloh upanishad”ning yozilganligidir.

Upanishadlarda ko’tarilgan asosiy masalalarning bir, inson “Men”ining tabiat va umuman borliq yaxlitligiga bo’lgan munosabati. Ya’ni “Chhandogya upanishad”da ko’rsatilgandek, “Inson har qanday bilimga o’z “Men”idan kelib chiqib yondashadi. U o’zini tanigach, o’z tabiatini bilishga harakat qiladi va shu dunyoni o’raganadi” (66.96-98b). Yana ikkinchi bir upanishadda “O’zini anglagan atma Brahman bo’lishi mumkin”ligi bildirilgan.

Umuman upanishadlardagi “Iloh va inson rishtasi” mavzui faqat hindlarga emas, balki boshqa, masalan, xitoy dunyoqarashlariga ham xos. Xususan, daosizm da Daoni so’z bilan ifodalash mumkin bo’lmasa ham, illo “Haqiqat yo’li”ni ixtiyor etganlar. U bilan muloqotga kirishishi mumkin. Yoki buddizm e’tiqodi bo’yicha, ”Har odam tabiatan Buddadir, ammo hamma ham buni anglayvermaydi”. Bu rishta tasavvufda yanada real tavsif orqali bayon etilgan, aytaylik, Fariddun Attorning “Javharu-z-zot” asarida:

“Sening ichingda javhar-mutlaq ruhning siri bor, ammo bu yerda senga yo’l ko’rsatuvchi yo’q. Oxirda yo’qotgan narsang sening o’zingdadir, bu zohriy sirlar bandiga giriftor bo’lgansan. Sen Xoliqning zoti va sifatleri javhariga egasan, ammo

zotining diydoridan uzoqsan.Sening javharing barchanikidan afzaldir. Ajabki,falak va yulduzlar sening ko'zlarining diydangdir, uying ichidasan-u eshikdan tashqarisan,ham ko'rinasan,ham yo'qsan..."(57:174b)

Agar brahmanizm mustaqil ta'limot darajasiga ko'tarilishidagi ilk monoteizm unsurlariga diqqat qilsak, uning shakllanishini yana veda falsafasiga duch kelamiz. Inchunun, vedalarda ham intuitiv yoki ongli ravishda Tangriga intilish tabiatni ilohiylashtirishdan boshlanib, undagi xudolar ma'lum darajada totemizm e'tiqodidan uzoqlashgan **vantropomorar**-odam ko'rinishida bo'lganlari bilan hali ular u qadar aniq va mukammal shaklga ega emasdi.(99:80b)

Inson va xudolar o'rtasidagi munosabat ibtidosi,avvaliga rizq-nasiba, hifzu himoyat va orzu umidlar niyatida "Sizdan ugina, bizdan bugina" qabilida olib borilgan: xudolar gulxan atrofida to'shalgan o't-o'lanlar ustida yemoq-ichmoq bilan siylanganalar, ularga atab qurbonliklar qilingan. Chunki hali u vaqtlarda ham qurbonlik uchun jonivorlarning olovga tashlanishi dinda jonzotlarga zo'rlik yoki ziyon yetkazish hisoblanmasdi".

Lekin keyingi davrlardagi tafakkur taraqqiyotining ma'naviy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda ko'rsatgan ta'siri hind jamiyati dunyoqarashlarida ham muayyan burilishlar yasadi. Veda taronalarida Indra,Savitri,Soma singari ko'p sonli xudolarning birlikdagi faoliyati ramzida butun borliqni yaratgan Prajapatining madh etib kuylanishi, uning yaratuvchanlik qudrati va ilohiy nafasini keyinchalik "Meytri upanishad" da bayon etilishi, hindlarning amaliyotda monoteizmga yaqinlashuvining ilk belgilari edi:

"U avval boshdan yolg'iz Prajapatining o'zi mavjud bo'lib, u yolg'izligi tufayli shodlik nimaligini bilmasdi. U o'zi haqida o'ylab ko'rib,(so'ng) sanoqsiz o'z ijodi mahsulini yaratdi.U (yaratganlariga) qarasa, (ular go'yo) tosh va(yerda yotgan) daraxt tanasiga o'xshab benafas-bejon.U bu holatdan xursand bo'lmay, qat'iy qaror qildi:"Men ularga jon ato etish uchun ichlariga kiraman".

U dastlab yaratganlarining ichiga shamoldek kirmoqchi bo'ldi. Ammo yakka-yolg'iz bo'lganligi uchun bunday qilishning imkoni sezilmadi.U(shunda) prana,apana,udana,samana,vyana deb atalgan besh qismga bo'lindi ".(44:259)

Prajapatiyning bo'lingan besh qism "Maytri upanishad"da "ilohiy tashrif uchun yurakdan ochilgan maxsus besh tuynuk" ramzida ifodalangan:

1. Birinchi "prana" tuynugi,

bu ko'rish-quyosh.

2. O'ng tomondagi "vyana" tuynugi

bu eshitish-oy.

3. Orqa tomondagi "apana" tuynugi

bu tafakkur-olov.

4. Chap tomondagi "samana" tuynugi

bu so'z-yomg'ir.

5. Tepa tomondagi "udana" tuynugi

*bu shamol-bo'shliq.*

Tangri Prajapatiyning o'z yaratganlariga jon ato etishdan oldingi yolg'izligi va keyingi besh qisimga bo'linishi tashqaridan qaraganda, go'yoki uning cheksiz kuch-qudratiga soya soladigandek. Haqiqatda esa, bu majoziy ikki "bir-biriga qarama-qarshi holat"ning hindlar uchun muhim yeri shundaki, Tangrining nafasga aylanib bo'linishidan zarra ruhlarning paydo bo'lishi, ayni paytda, ularning ibtidoiy yaxlitligining yorqin namunasi. Shu kabi borliq va hayotning yaratilishi haqidagi voqelik oddiy hinduparastlar uchun yanada oson va tushunarli misollarda ham bayon etilgan:

"Tangri prakritiyga-tabiatga bir nigoh tashlash bilan uni behisob individual zarralar bilan to'ldiradi" (22:130-133b).

Qisman shunga o'xshash borliq ruhlarning yaratilishiga doir nuqta'i nazar, ma'lum darajada, tasavvuf ahli tasavvuriga ham uyg'unlashgan, xususan: "...so'fiylarning e'tiqodi bo'yicha, olamni Xudo yaratgan. Ungacha "Vujudi mutlaq"dan bo'lak hech narsa bo'lmagan. Shuning uchun majdulikni Xudoning husni jamolinina aks ettirgan oyna timsolida bilishi kerak". Lekin Parvardigorning tirik tabiatni ijod etishidan maqsadi faqat o'z jamoli qudratidan bahrlanish emas, balki "Bu maftunkor moddiy go'zallikni, uning oily ifodasi-insonni yaratish g'oyasi natijasida tug'ilgan:

Jilvai husningga chu yo'q erdi had,  
Ko'zgu kerak bo'ldi anga beaded.  
Muncha g'aroyibki misol aylading,  
Barchani mir'oti jamol aylading.  
Ganjing aro nag'd farovon erdi,  
Lek baridin g'araz inson erdi.” (144:26b)

Ma'lumki, vedizm va brahmanizm talqinida Brahma va Shivadek eng ulug' yarim xudolar ham oily tangriga sajda qiladilar. Ammo Narayan, Vishnu va Krishna “Oliy iloh”ning inkarnatsiyasi-inkishofi sifatida moddiylikdan istisno” (22.232-233b). Bu yerda Oliy ilohning har uch inkarnatsiyasi to'g'risida yana shuni qayd etish lozimki, hinduizm amaliyotida Narayan va Vishnuga nisbatan Krishnaga e'tibor alohida. Diniy matnlarning tafsirida ham Shri Krishnaga Oliy iloh inkarnatsiyasining dastlabki va asosiysi deb qaraladi.

Ha, balki muqaddam Bhagavad-gita tafsirida keltirilgan iqtiboslardan hinflarning Xudoni bir bilishiga shubha tug'ilar, chunki:”Xudo bir bo'la turib Uning Narayan, Krishna yoki Rom obrazidagi ko'rinishlariga sajda qilinishi shir keltirishning o'zi-ku!” Hamma gap shundaki, hinduizm falsafasida insonning Tangriga xos bemisl qudratni aniq-tiniq idrok etishi va bunga to'la ishonch hosil qilishi uchun, uning faoliyati inkarnatsiyalar vositasida konkretlashtiriladi. Demak, garchi hinduparastlarda lomakon Tangrining mavjudligi uning inkishoflari ramzida tasavvur etilsa-da, lekin ibodat vaqtida ruhan faqat uning ramzlari yaxlitligi-O'zigagina sig'iniladi.

Tangriga ishonch-e'tiqod tuyg'ularining ustuvorligi ifodalangan”Maytri upanishad”dan ma'lumki, Yaratganga murojaat etishda doim ham uning inkarnatsiyasidagi nomlari istifoda etilmagan, balki ularning o'rnida ikkinchi shaxsning erkalash ma'nosidagi “Tu”-“Sen” shakli qo'llangan.

“Meni qutqar! Men bamisoli bu hayot girdobida qurib qolgan quduq ostidagi qurbaqamen, Sendur-Sen(qutqaruvchi) bizning yo'limiz!” (44:358b).

Politeizm va monoteizm o'rtasidagi farq va ularning umumiy mohiyati haqidagi tushunchalarga o'rta sar musulmon teologlari va mutasavvif shoirlari ham

befarq qaramaganlar. Shulardan biri va eng xarakterlisi Ibn Arabiy, “*Dinlarning turlichi faqat yagona haqiqatning manifestatsiyasi*” deya, o’zga dinlardagi ilohiy mavjudlik tuyg’usini urg’ulagan(123:30-32b).Yoki, Navoiyning so’zida, “Chun (tafakkurga) eshik ochilib, unga kirilgach,”kufir va imon tushunchalari” Alloh haqiqatini bilish, ya’ni bu dunyoning asl mohiyatini anglash yo’lida to’siqdan boshqa narsa emas” ekanligi ma’lum bo’ladi. “**Lisonut-tayr**”

Kufir ila imong’a urg’aysan ilk,  
Bu ta’midin ochilg’ay bir eshik.  
Chun eshik ochildi ne kufri ne din,  
Ichkari kirgach, qutulding barchadin.  
Kufri imon rohvarg’a kesh emas,  
Asl yo’lda bandirohe besh emas.” (144:28b)

Aslini olganda monoteistik tushuncha eng qadim zamonlardan-hali politeizm ruhiyati ustuvor muhitda ham o’z davrining ilg’or ziyolilari dunyoqarashlarida aks etgan edi. Binobarin, Suqrotning o’quvchisi Platonning bizga yetib kelgan iloh xususidagi tushunchasida, o’sha davr markaziy diniy talqinlaridan biri

-Absolyut g’oya ko’zga tashlanadi, ya’ni butun borliq mavjudligining birlamchi ruhiy asosi! Bunda prinsipial jihatdan yana shunisi muhimki, faylasuf nafaqat Xudoni o’zidan tashqarida izlaydi, u shuningdek, Uning ovozigga o’z qalbidan quloq soladi. Bu bilan u yana bir muhim g’oyani tasdiqlagan-odamning Absolyut bilan birligini. Shuning uchun alloma o’z zamondoshlarini o’tkinchi dunyo manfaatlari emas, balki qalb haqidagi qayg’urishga chaqirgan. U fuqarolarga xususan shunday degan:”**Men doim sizlarning har biringizni-yoshu qarini o’z tanangiz emas, balki qalbingiz haqida o’ylashga chorlayman, toki u imkon qadar pok va beg’ubor bo’lsin...**”

Yunon olimi insonning Absolyutga tegishli ekanligini alohida urg’ulab, bu haqiqatni ruhning abadiyligi g’oyasi bilan bayon etgan. Do’stining o’limi oldidan Kritonning:”Suqrot, seni qanday qilib dafn etaylik?” degan savoliga bergan javobi, uning “Absolyut va ruh” to’g’risidagi fikri foydasiga eng yaxshi isbot edi:



**“-Qanday xohlasangiz shunday,-kulimsirab debdi u,-basharti meni quvib yeta olsangiz!” (138:69-72b)**

Agar yunonlar fikridan soʻng yana mavzu yuzasidan hindlar xulosasiga qaytadigan boʻlsak, Mandukya upanishadda moddiy va ruhiy olam oʻrtasida gʻov boʻlgan ”haqiqat” ga yaqinlashamiz:

**“Xuddi daryolar dengizga borib quyilib oʻz nomi va oqimi bilan yoʻq boʻlib ketganidek, oʻz nomi va shaklidan qutilgan zot ham Purushaga borib qoʻshilib ketadi.Faqat odamning asosiy musibati”avidiya”-uning bilimsizligi, yaʼni atman va Brahmanning birligini bilmasligidir!”**

Xullas, Tangri taoloning yaratuvchanlik qudrati, irodasi va faoliyatining targʻiboti jabhasidagi hind diniy kitoblarida, moddiy tabiat va jonzotlarning birini ikkinchisi bilan azaldan oʻzaro uygʻunligiga katta ahamiyat beriladi, masalan, Bhagavad-gitada:

**“Bilki, moddiy tabiat va tirik jonzotlarning ibtidosi yoʻq...”**

Izoh.”Moddiy tabiatga oʻxshab tirik jonzotlar ham abadiydir. Bu degani, ular yaratilguniga qadar ham mavjud boʻlganlar.Moddiy borliq aslida Oliy tangrining shaxsiyatida mujassam boʻlib, zaruriyat tugʻilganda”**Mahatatva**-oliy unsur” zamirida paydo boʻladi.Ilohiy zahiradagi tirik jonzotlarga oʻzlarining shartli holatlari-sarkashliklari tufayli dastlab ruhiy olamga kirishga izn berilmaydi. Ammo moddiy tabiat vujudga kelishi bilan tirik jonzotlar ham harakatlanish imkoniyatiga ega boʻladilar va ruhiy olamga doxil boʻlishga tayyorlanadilar. Avvalda ular Oliy tangrining ruhiy zarrasi boʻlib, biroq, keyin oʻzlaridagi sarkashlik xususiyatlari bois moddiylik holatiga bogʻlanib qoladilar. Tirikjonzotlarga xos keyingi oʻzgarishlar, turfa shakl-shamoyillar faqat ualrdagi tana tufayli, lekin ruhiy mohiyatda-chi, ularning tabiati bir xil”.

Agar vedalarda ilohlar mavzui va borliqning yaratilish masalasi unchalik chuqur tahlil etilmagan boʻlsa, brahmanizmnda bu jihat ancha yuksak darajada oʻz poyoniga yetdi.”Samhitdagi abstrakt xarakterli tangri Prajapatiy brahmanlarda butun borliq yaratilishining asosiy sababchisi va uning taraqqiyot shakllariga taalluqdor omil sifatida birinchi planga oʻtdi.” Negaki Hindistonda politeizmdan

monoteizmga o'tish jarayoni nafaqat ruhoniyl balki bevosita ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot talabi edi. Markazlashgan yirik davlatlarning paydo bo'lishi yakxaxudolik unsurlarining shakllanishini jadallashtirdi-"Yakka podshoga yer yuzida Xudoning ham yakka bo'lishi kerak edi. Tangri haqida tasavvur paydo bo'la boshlagan". Va mazkur tasavvurlarda vujudga kelgan yakka Xudo haqidagi tushuncha, keyingi davr diniy manbalarida "ilohiy kalom" darajasiga ko'tarilgan:

**"Kimki yarim xudolarga sig'insa, u yarim xudolar orasida tug'iladi, kimki o'z ajdodlariga sig'insa, u ular huzuriga boradi, kimki jonivorlarga sig'insa, u shular qavmida dunyoga keladi, lekin kimki Menga sig'insa, u Men bilan birga yashaydi"**

Brahmanizm g'oyalarining ommalashuvi yerlik aholining diniy an'analariga nisbatan "oriyona" bepisand munosabatni tubdan o'zgartirishni talab qilardi. O'z o'rnida "nufuzli din"ning mahalliy ma'naviy muhitga moslashuvi, yangi omixta e'tiqodni keng hududlarga tarqalishini ta'minlardi. Bunda brahmanlar tizimi "qolipi"ning kengayishi, birinchi navbatda, allaqachon hindlarning o'zi uchun ham mifologik qatlamlarda o'z hayotiyiligini yo'qotgan vedizmning o'zida yuz bergan evolyutsiyaning natijasi edi. Shuning uchun vedizmning isloh qilingan shakli bo'lgan brahmanizmda **brahma, dharma, sansara va karma** ta'limotlari saqlangan holda ilgari qurbomliklar qilish bilan bajariladigan rituallar o'rnini ma'naviy ibodat omillari egalladi.

Garchi ushbu diniy yuksalish jarayonida ilohiy ilmlar kaliti-qayta tug'ilishlardan ozod bo'lish baxtiga sazovorlik huquqi brahmanlar qo'lida qolgani bilan ular tomonidan o'z huquqlari muhofazasi yuzasidan ko'rilgan ehtiyot choralari o'ylangan natijani bermadi. Chunki "kshatriy tabaqasiga mansub rojalar, hokimlar, harbiy sarkardalar va ularga yaqin boshqa mulkdor ijtimoiy qatlamlarning haqiqatni izlash yo'lida brahmanlarni chetlab o'tayotganligi, ertami-kechmi sezilib qolishi ayon edi. Oxir-oqibatda shunday ham bo'ldi: ular dunyoning paydo bo'lishi, borliqni idrok etish, hayot va o'lim sir-asrorlari singari falsafiy ma'lumotlar bilan mustaqil qiziqqa boshladilar".

Nihoyat, turli ilohlarga mutassil qurbonliklar qilish bilan cheklangan vedalardan farqli ravishda brahmanizmda sezilgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga yon berish tendensiyalari na oriy va na tub mahalliy bo'lmagan yangi diniy ta'limotlarning yaratilishiga yo'l ochdi. Agar hind diniy-falsafiy islohotlari yo'lidagi so'nggi upanishadlar o'zining keng dunyoqarashlari va o'zga dindorlik shakllariga bo'lgan murosasozligi bilan diqqatni jalb qilsa, jaynizm va buddizm kabi noortodoksal tizimlar o'zining negizidagi ma'nan mustaqil tamoyillari hamda muqaddam shakllangan har qanday diniy e'tiqodga nisbatan nomuxolif va erkin munosabati bilan e'tirof qozondi.

### **III reja Qadimgi Hindistondagi diniy e'tiqodlar – brahmanlik**

Qadimgi Xitoy mifologiyasi to'g'risidagi manbalar asosan er. avv. XI asrga oid. Bu afsonalar mazmuniga ko'ra ikki guruh yoki silkilgan bo'linadi.

Kosmogonik miqlar ichida ilk, tartibsiz holatdan tabiat va insonning paydo bo'lishi to'g'risidagi asosiy konsepsiya, bo'linish va aylanish berilgan. Ulardan birinchisi jonsiz va tirik mavjudotlar tartibsizligi, ikki ilk unsur (erkak)ning boshlanishi, Yan va qorong'ulik (ayol)ning boshlanishi – In paydo bo'lgan. Ikkinchi konsepsiya barcha mavjudodlarning paydo bo'lishi bu transformatsiya natijasidir deb tushuntiradi. Odam Nyuy ismli ma'buda tomonidan loydan yaratilgan.

Tabiat stixiyalari va ulardan odamlarni qutqargan qahramonlar to'g'risida afsonalar ko'pchilikni tashkil qiladi. Toshqin qurg'oqchilik hodisalari afsonalarda ko'p tilga olinadi. Qadimgi qahramonlar to'g'risidagi afsonalarda qahramonlar odamlarni olovdan foydalanishga o'rgatgan; ilk bor shox-shabba chaylani qo'rgan. Baliq oviv a ovchilik usulini kashf qilgan; ilk dehqonchilik qurollarini yasagan, donni bug'da pishirishni o'rgatgan qahramonlar mavzuni yetakchi o'rinni tutadi. Ko'pgina qahramonlar ilon gavdali, buqaning kallasi bilan yarim hayvon, yarim odam qiyofasida tasvirlanganlar. Bu qadimgi totemistik tasavvurlarni aks ettirishdir.

Qadimgi xitoyliklar u dunyo to'g'risidagi tushunchalarida yerda mavjud o'lgan tartib-qoidalar aks ettiriladi. Yerda hokimiyat Vanga tegishli, osmonda hamma jismlar Oliy xudo (Di)ga buysunadi. Di qudratli, u odamlarga marhamat qiladi yoki ularni baxtsizlik bilan jazolaydi. U odamlarga hosilni sovg'a qiladi, qurg'oqchilik yuboradi, yomg'ir va shamol Diga bog'liq. Dining yaqinlarini Vanning vafot qilgan ajdodlari tashkil qiladi. Vanning ajdodlari Dining topshiriqlarini bajaradi va ular Vanning yordam berish to'g'risidagi iltimosini Diga yetkazadi. Vanning oliy kohin sifatida vazifasi odamlar va xudolar dunyosi o'rtasida vositachi bo'lgan o'z ajdodlar bilan muloqotni amalga oshirishdir.

Konfusiylilikni paydo bo'lishi va tarqalishi ajdodlarga e'tiqod qilishni kuchaytirdi. Konfusiy (er.avv. 551-479-yillar)ning axloqiy-siyosiy ta'limotida markaziy o'rinni «oliyjanob kishi» (Szyan Szi) to'g'risidagi tushuncha egallaydi. Konfusiylilik gumanizm (Jen), sadoqat (Chjun), kattalarga hurmat (Suio), kishilar o'rtasidagi munosabatlarga rioya qilish (Li) dan iborat. Konfusiy ochko'zlik, zo'ravonlikka qarshi axloq va burchni qarama-qarshi qo'yadi.

II-III asrlarda Xitoyga Budda dini kirib keldi. Afsonalarga ko'ra, birinchi Budda sutralari (matn yoki qoida) Xitoyga oq otda olib kelingan: bunga xotira sifatida Loyan shahri yonida Budda «oq ot ibodatxonasi» qurilgan va hozirgacha saqlanib qolgan. Xitoyda sutralarni tarjima qilish va Budda dinini tarqalishi IV-VI asrlarga tegishlidir.<sup>9</sup>

Qadimda veda diniga sig'inish marosimlari, qurbonlik qilish turli urf-odatlarini bajarishdan iborat bo'lgan. Bularning hammasi Xarappa aholisining diniga mansub. Xarappa vaqtidagi dinlarga sig'inish, ibodat qilishlar bizning davrgacha yetib kelgan. Hindiston hududida Rigveda yagona asar bo'lgan. Veda, o'sha davrda yashagan insonlarning o'zi va uni o'rab turgan olam: xudolar, jin, shaytonlar, fazo, marosimlar, ijtimoiy tuzum, milliy qadriyatlar va boshqalarni o'z ichiga oladi. Eramizdan avvalgi 2-ming yilliklar o'rtalarida Hindistonga shimoldan mahalliy aholi tillari va ranglari bilan farq qilgan xalqlar kirib kela boshladilar. Ular yevropa tillariga o'xshash bo'lgan, o'zlarini esa oriylar (aslzodalar) deb atar edilar.

Rigveda 1028 ta gimndan iborat. Oriylar degan xalq, jangari xalqlar bostirib kela boshladilar. Bu xalqlar Eronga ko'chib kelgan qo'shni qabila tillariga yaqin bo'lgan, hind-yevropa tillaridan kelib chiqqan tilda gaplashgan edilar. Harbiy jihatdan katta mahoratga ega bo'lishlari bilan birga she'riyatga ham usta edilar. Shu yo'l bilan ular bu mintaqada mavjud bo'lgan dunyoqarashni o'zlari xohlagan tarafga o'zgartira olardilar. Ular o'zlari bilan muqaddas yozuvlari bilan vedalarni olib kelgan edilar.

---

<sup>9</sup> Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi. –Toshkent, 2009, 203-204-bb.

Hind adabiyoti juda boy – uch yarim ming yildan ortiq tarixga ega. Vaqt o'tishi bilan undan anchagina qismi umuman yo'qolib ketdi. Ammo bu adabiyotning boshlanishi vedalardir. Bu boshlanish bo'sh, sayoz bo'lmay, aksincha, juda ham puxta va ajoyib edi. U keyinchalik o'z o'rnida katta daryolar paydo bo'lgan kichik irmoqlar emas, balki ulkan denizni eslatadi. U doimo asosiy manba bo'lib qolaveradi.

Albatta, Rigvedadan oldin qadimiyroq manba bo'lgan bo'lishi mumkin. Lekin biz bu haqda hech narsa bilmaymiz. Rigveda o'z sohasida nafaqat eng ko'zga ko'ringan kitob, balki Hindistonning o'sha davr voqyealari haqida xabar beruvchi noyob manba hamdir. Vedalar tarkibiga turli davrlarda yozilgan bir necha kitoblar kirgan bo'lib, ular o'z ichiga ibodat, marosimlar, falsafiy ta'limotlar, tarixiy xabarlarini olgan edi.

Rigvedadan qolgan o'rta vedalar xarakteriga o'xshab undan farq qiladi. Ya'ni «Samaveda», «Yajurveda» va «Atxarvaveda»lardir. Rigvedaning qadimiy va qadimgi hindlar madaniyatida, shuningdek, Umumhind-yevropa madaniyatidan o'rnini tushunish uchun kitobning asli paydo bo'lish tarixiga nazar solish lozim.

Oriy qabilalarning ko'chib kelishlari ko'p asrlarga cho'zilgan va juda keng miqyosni qamrab olgan uzoq jarayon bo'lgan. Rigvedada bu qabilalarning Hindistonga ko'chib kelishlaridan oldingi xarakterlari haqida aniq esdaliklar uchramaydi. Ammo oriylar bu yerda birinchi paydo bo'lganlarida ularda faqatgina jang aravalari emas, balki xudolarga aytilgan, ularning jangovar irqini qo'llab-quvvatlagan, ularning dushman ustidan g'alaba qilishlari shon-shuhrati emas, boylik, avlod qoldirish taraqqiy etish uchun intilishlarini aks ettirgan madhiyalar ham bor edi. Bu madhiyalar ruhoniy oilalarida og'izdan og'izga, avloddan avlodga uzatildi. Bu madaniy yodgorliklardan bizgacha 4 ta qism (samxita): «rigveda» (qasida, madhiya, duolar to'plami), «samaveda» (qo'shiqlar to'plami), «ayurveda» yoki «ajurveda» (qurbonlik qilish yo'llari), «atharvaveda» (sehrli duolar to'plami) yetib kelgan. Veda adabiyoti bir necha

ming yillar davomida shakllanib, qadimiy hindlar tarixidagi turli jamiyatlarning diniy-falsafiy, estetik taraqqiyoti darajalarini ifodalaydi.

Vedalarning boshqa muqaddas yozuvlardan farqli tomoni shunda ediki, ular nihoyasiga yetkazilmagan va oxiri ochiq edi. Unga keyingi ruhoniylar tomonidan qo'shimchalar qo'shish imkoni bor edi. Shuning uchun keyinchalik bu yozuvlar juda ham kengayib ketdi. Qadimgi oriylarning xudolari faqat erkaklar bo'lgan. Rigvedada ayol xudolar kam. Masalan, Prijxivi, Serniki, Aditi, xudolar onasi Ushas, Sahar xudosi Ratri va boshqalar. Rigveda yagona asar, to'plam sifatida Hindiston hududida, asosan, Panjobda Hind daryosi havzasida mujassam bo'ldi. Hindiston tarixi bo'yicha qadimiy sana hisoblanmish, miloddan avvalgi VI asr – buddizmning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Vedalar esa ancha qayd etilgan. Shunday qilib, Rigveda Shimoliy Hindistonda miloddan avvalgi II-I ming yilliklarda yuz bergan voqyealar haqida ma'lumot beruvchi yagona manba bo'lib qolmoqda. Bu yodgorlik juda noyob bo'lganligi sababli u faqat o'zini-o'zi sharhlaydi.<sup>10</sup>

Veda – «muqaddas bilim», Rigveda – «Madiyalar» ma'nolarini beradi. Veda o'sha davrda yashagan insonning o'zi va uni o'rab turgan olam, xudolar, jin-shaytonlar, fazo, marosimlar, ijtimoiy tuzum, milliy qadriyatlar va boshqalar haqidagi bilimning barchasini o'z ichiga oladi.

Rigveda xudolarga aytilgan madhiyalarning to'plami, ya'ni diniy yodgorlik bo'lib, uning mualliflari, rishi – kuylovchilarning asosiy vazifalari xudolarni oriylar tomoniga og'dirish bo'lgan. Ular madhiyalarni kuylab xudolarni maqtaganlar, ularning qahramonliklari va sharaflarini ulug'laganlar, ularni qurbonlik keltirish marosimlariga taklif etganlar va shundan so'ng ulardan oriylarni qo'llab-quvvatlash hamda hayot farog'atlarini so'rganlar.

Xudolarga ta'sir etishning eng asosiy yo'li – ularga madhiya aytish bo'lgan. Hinduizm dini shakllanishining dastlabki bosqichidir. Veda dinida dastlab, tabiat kuchlari va hodisalari antropomorfik, ya'ni inson qiyofasiga

---

<sup>10</sup> Антонова К.А., Бонгард-Левин Г.М., Котовский Г.Г. История Индии. –М., 1979, 42-44-бетлар.

o'xshatib tasavvur etilgan. Veda dinida yaxshi va yomon xudolar, ruhlar haqidagi tasavvurlar asosiy o'rin egalladi. Unda politeizm, ya'ni ko'p xudolik hukmron bo'lgan. Veda dinida sig'inish marosimlari asosan xudolarga qurbonlik qilish, ovqatlar, hayvonlar keltirish va turli urf-odatlarini bajarishdan iborat bo'lgan. Keyinchalik kohinlarning alohida qatlami – braxmanlar ajralib chiqib, diniy marosimlar murakkablashdi. Eng katta xudo hind-yevropaliklar uchun: greklarning Zevs, rimliklarning Yupiteri bo'lgan, oriylarning xudosi Deaus bo'lgan. Oriylar askarlarining xudosi Indra bo'lib, u urush va momaqaldiroq xudosi bo'lgan. Oriylarda Indra haqida juda ko'p masallar bo'lgan va uni gimnlardan o'qish mumkin. Vedalar ichida eng qadimiy «Rigveda» hisoblanadi. 10 kitob, ya'ni mandaladan iborat. Bundan tabiatdagi narsa va hodisalar (osmon o'zgarishi, quyosh, yulduzlar, momaqaldiroq, shamol, yomg'ir, tog'lar, daryolar) ilohiy kuchlar sifatida gavdalantirilib, ular sharafiga qo'shiqlar, madhiyalar to'qilgan, ularga qurbonliklar keltirilgan.

Insoniyat hayoti, uning baxt-saodati ana shu kuchlarga bog'liq holda tasavvur qilingan. Rigvedaga ko'ra, Indra momaqaldiroq ilohi, Mitra quyosh tangrisi, Varuna – Osmon ma'budasi, Agni – Olov ma'budi, Yama – ajal, o'lim keltiruvchi, Sama – ot ma'budasi, Rita – koinot tartibini anglatadi. Rigveda qo'shiqlarini to'plovchilar – rishi (ilohiy qo'shiqlarni to'quvchi donishmand)lar deb atalgan. Vedalarda butun tabiatning ilohiyligi haqidagi ta'limot ilgari suriladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Hindiston ko'pxudolikning o'chog'i hisoblanadi. Undagi tasavvurlarda biri ikkinchisidan yuqoriroq bo'lgan, ikkinchisi, aksincha, pastroq bo'lgan qator ilohlar siymosi namoyon bo'ladi.

Biroq bu darajalar to'xtovsiz almashinib turadi. Ilohlar orasida «eng ulug'i, eng kichigi, eng qarisi, eng yoshi» bo'lmay, ular barchasi ulug'likda, umumlikda tengdir. Eng yuqori hokimiyat ham ko'pchilikka tegishli. Bir vaqtning o'zida bir xudo butun borliqning hukmdori bo'lishi va shu bilan birga u ikkinchi bir xudoga tobe bo'lishi mumkin. Masalan, Indra va barcha xudolar Varunaga tobe bo'lgan bir paytda Varuna va boshqa barcha xudolar Indraga



bo'ysunadilar. Xuddi shu munosabat boshqa xudolarga ham tegishli. Bu belgi veda ilohiyatiga ham xosdir. Vedalarda xudolar – osmon xudolari, quyosh xudolari, havo xudolari, yer xudolari, ayol xudolari kabi xudolar toifasi haqida madhiyalar bayon etilgan.

Osmon xudolari, ular Deus, Varuna, Indra kabi turli osmonlarni boshqarib turuvchi xudolar kiradi. Biroq Varuna keyinchalik suv va dengiz xudosiga aylanib ketgan. Varuna bu, birinchidan, podshoh. Dunyoning tabiiyligini to'g'ri taqsimlatgan, ya'ni kun tutilishini almashtiradi, fasllar bir-birining orqasidan to'g'ri taqsimlangan. Odamzod rishaga moslab hayot kechiradi. Risha Varunaga bog'langan. Varuna faqatgina Indraga yo'l ochib beradi, boshqa xudolardan farq qiladi. Uni Asura deb nomlaydilar.

Quyosh xudolariga «Rigveda»da quyosh energiyasining turlicha namoyon bo'lishidn besh xudo yuzaga kelganligi haqida so'z yuritilgan. Ularning eng qadimiysi Mithras, ya'ni Mitra Eron oriylari hamma xudolaridan Varuna juda baland turardi. Qadimgi odamlar, kishilar, o'simliklarning oy bilan o'stiradigan, Soma bu o'simliklar xudosi edi. Varuna undan ham yuqori edi. Gunohlarni yuvish uchun, boshlariga to'rva xamani osib, ustiga kul tashlab, xudo, ya'ni Varunadan iltijo qilib gunohlarini kechirishini so'ragan. Agar u kechirmasa, biron-bir kasalga chalingan, shu bilan Varuna hyech bir gunohlarni aybsiz qoldirmagan. Ana shunday qilib jazolangan. Varuna o'zining ana shundayligi bilan yaratuvchi xudo deb nom olgan. Ikki shaxs dunyoning chekkasida borib, bir-birlari bilan kelishmay qolganda ham o'sha yerda uchinchi shaxs Varuna bo'lgan. Yama bo'lsa o'lganlar, ya'ni marhumlar xudosi. Panteonda boshqa juda ko'p xudolar bor edi. Bulardan birini eslasak, Tvashtar – Vulqon, Ariman – nikoh xudosi, Vayu shamol xudosi ahamiyatiga ega bo'lgan xudolardir. Oriylarning asosan sig'inish marosimlari xudoga qurbonlik qilish edi.

Hinduizm dinida uylarini, jamiyatni yomon xudolar va ruhlardan saqlash uchun qurbonlik qilish lozim edi. Buni «Rigveda» madhiyalarida ko'rish mumkin. Boy odamlar yoki jamiyatning kattasiga «Rigveda»ning ba'zi madhiyalarida qurbonlik qilish huquqi berilgan. Bu qurbonliklar orqali

xudolardan o'zlariga yaxshilik kelishini so'raganlar. Xudolarga dasturxonlar yozib, ustiga ichimlik, ovqat, noz-ne'matlar qo'yilgan. Ular osmondan tushib iste'mol qilib, ularni duo qilib, ishlarini biron-bir maqsadlarini bajarishini so'raganlar. Bu Veda madhiyalarida uqtirilgan. Veda dinida sig'inish marosimlari asosan xudoga qurbonlik qilish, turli urf-odatlarini bajarishdan iborat bo'lgan. Keyinchalik kohinlarning alohida braxmanlari paydo bo'lgan. Rigvedada faqat braxmanlar haqida ma'lumot berilgan. Braxman so'zi sanskritcha so'zdan olingan brahmana – kohin, duvoxon bo'lgan. Braxmanlik veda dinlarining bir yo'nalishi edi. Vedalardagi qo'shiqlar va madhiyalar olinsa, hatto ruhoniylarga tushunarsiz bo'la boshlagan bu madhiyalar ham o'zgarishga uchramay, muqaddas til va madhiyalar paydo bo'ldi. Bu veda she'rlarida bug'ularni ilohiylashtirgan. Bug'u nomi so'zida ilohiy kuch bo'lgan. «Rigveda» ham har bir davrda o'zgardi. Oxirida «Rigveda»dagi e'tiqodda Olam xudosi qurbonlik qilishdan paydo bo'lgan deyiladi. Dastavval ibodatlarda faqat qurbonliklar tilidagina amalga oshirilgan. Unda ma'budalarga «soma» ichimligi tortilgan. Davrlar, vaqtlar o'tishi bilan marosimlar murakkablashgan. Albatta, o'sha davrda eng ko'p qo'llanilgani bu qurbonlik qilish bilan. Masalan, inson bir narsaga muhtoj bo'lsa, xudoga qurbonlik qila turib, undan o'z ehtiyojini qondirishni so'ragan. Oriylar umuman boshqa madaniyatga, hayot tarziga mutlaqo boshqa tabiiy sharoitga duch keldilar.

Bu taraqqiyot dinni chuqurlashtirish, ruhoniylar tabaqasining mavqeyini ko'tarish, ibodat marosimlarni murakkablashtirish ilohlar sifatini murakkab tomonga o'zgartirish hisobiga bo'ldi. Keyinroq esa o'zgartirish taqiqlangan diniy aqida vujudga keldi.<sup>11</sup>

Braxmanlar shunday zot bo'lganki, ular biror-bir xatolikka yo'l qo'ysalar, hatto jamoasi azob chekkan. Shuning uchun hamma braxmanlar qahridan qo'rqqanlar. Chunki braxmanlar ba'zi xudolardan ham yuqori turgan. Ular tarki dunyo qilgan odamlar bo'lgan. Ular shu asosda sadaqa in'om orqasidan umr

---

<sup>11</sup> Токарев С.А. Религия в истории народов мира. –М., 1965, 314-б.

o'tkazib, kuniga bir marta ovqatlanganlar. Lekin «Rigveda»ning oxirgi qiyosasida Pradjalani (odamlar xudosi) braxmanlar bilan birga bo'lgan, unga qurbonlik qilganlar va qolgan xudolar uning bolalaridir degan g'oya bo'lgan. Qadimgi xudolar «Rigveda»da o'z o'rinlarini yo'qota boshladilar va ikkinchi planga o'ta boshladilar. Birinchi o'ringa Vishnu va Rudra xudolari chiqa boshladilar. Rudrani vedada Shina ehtiromi deb nomladilar. Birinchidan, uni qahri qattiq xudo deb bildilar va bu evfimizm edi. Ganga vodiysida oriylar madaniyati kirib borardi va u o'limdan so'nggi hayotni bildirishga urinlarga «Rigveda»da o'lgan odamning u dunyodagi, ya'ni ota-bobolar dunyosiga yoki yer uyiga borib o'sha yerda qolishlarini yozganlar. Lekin yana bir shundy «Rigveda»ning oxirgi qismida yozilishicha, ular yo suv, yo o'simlik bo'lganlar deyilgan.

Brixadaranyaka upanishada aytilganidek, bir jismdan boshqa jismga aylanishini yozganlar. Biroz vaqt ular jannatda yashadi bo'lib u yerda nozu ne'matlardan bahra olib, Oyga yo'l oladilar, u yerdan bo'shliqqa o'tadilar, havodan yomg'ir bo'lib yerga tushadilar. Bu yerda ular ovqatga aylanadilar. Keyin ularni olovga berib ayol qiyofasiga aylanadilar. Boshqa vedalar orasida «Rigveda»ga ko'proq bog'liq bo'lgani bu Samovedadir. Undagi she'rlar, asosan «Rigveda»ning VIII va IX mandalasidan olingan bo'lib, tantanali qurbonlik marosimi paytida o'qiladi. To'plam ikki qismdan iborat: birinchi kichikroq bo'lgan hajmli Agni, Indra ilohlarga, ikkinchisi Somaga qurbonlik keltirish marosimida aytiladigan qo'shiqlardan iborat. She'rlar orasida, ya'ni ichki bog'liqlik bo'lmay, ularning tartibi marosimlarning borishiga qarab belgilangan. Bu she'rlar aholi bilan qo'shiq tarzida aytish uchun mo'ljallangan. Ushbu vedaning maqsadi – diniy marosimlarda aytiladigan qo'shiqlarni o'rgatishdan iborat. Keyingi paytlarda qadimiy musiqiy an'ananing davomi deb qilinayotgan zamonaviy ijroni o'rganish bo'yicha ko'p ishlar qilindi. Yajovedada qolgan vedalardan farqli o'laroq, to'laligicha gyarauta bilan bog'liq yajid vedaning matni marosim o'tkazuvchi braxmanlar tomonidan tahlil qilingan. Ulardagi

umumiy jihatlarni aniqlash mumkin: tunda, to'lin oyli tunda, yangi oy chiqqanda Agni uchun o'tkaziladigan qurbonlik marosimlari.

Hind an'anasiga ko'ra, vedaning bu maktablari qora va oq yajurvedaga bo'lingan. Boshqa vedalardan mazmun va mohiyati jihatdan farqli o'laroq qadimiy hind jamiyatida mavjud bo'lgan barcha nuqson va kamchilikni o'zida aks ettiradi.

Atxarveda veda dini ruhoniylarining asosiy ibodati hisoblangan. Somaga qurbonlik qilishga umuman e'tibor qaratilmagan. Shuning uchun ham u yuqoridagi uch vedaga e'tiqod qiluvchilar tomonidan tan olingan. U oila atrofidagi markazlashgan marosimlar bilan ko'roq bog'liq. Shunday qilib, Atxarvaveda o'zidan avvalgi vedadan marosimlarining negiz va mohiyati bilan farqlanadi. Uning asosida uzoq o'tmishga borib taqaladigan xalq sehrgarlik marosimlari yotadi.

Atxarvavedaning qachon paydo bo'lganligi masalasi aniqlikdan ancha yiroq. U eng qadimiy hisoblanmish «Rigveda»dan ancha keyin yaratilgan. Donishmandlar o'sha davrdagi qayta tug'ilish quvonch olib kelmasdi degan.

«Rigveda»dagi qurbonlik qilish quyidagicha: haqiqatan tonggi shafaq – bu qurbonlik qilinayotgan otning boshi, quyosh – uning ko'zi, shamol – uning nafasi, og'izning ochilishi bu – olov, yo'l – bu qurbonlik qilayotgan otning badani. Osmon – uning orqasi, havo bo'shlig'i – uning qorni, yer – uning oyoq orasi, jahon mamlakati – uning yoni, yil fasllari – uning olami, oy va yarim oy – uning qo'shilishi, kun va tun uning oyoqlari. Yulduzlar – uning suyaklari, bulut uning go'shti, qornidagi – bu qum, daryolar – uning tomirlari, jigar va o'pkasi – tog'lar, o'tlar va daraxtlar – uning sochlari, quyoshning kirishi (quyosh) – uning oldingi tomoni, ketadigani – uning orqa tomoni. U og'zini qattiq qissa, momoqaldiraq, qachon u qimirlasa, chaqmoq chaqnaydi, siydigi chiqsa, yomg'ir yog'adi, ovozi – uning ovozi. Simvolik qurbonlik qilish judayam murakkablashdi. Hindistonda ruhoniyy koinlar mintaqaning diniy hayotini o'zgartirdilar.

Upanishadlar asosan falsafiy-diniy risolalardir. Upanishadlarda falsafiy masalalar ancha keng yoritilgan bo'lib, hindlar tangrisi Brahma borliqning ibtidoisi va intihosi, barcha mavjudotlarning asosi deb uqtiriladi.

Upanishadlarga ko'ra, moddiy olam, shu jumladan, inson ham Atma – Brahmadan paydo bo'lgan va o'shanga qaytadi. Bu fikr butun borliq atalmish jamoli, yaxshi, pok insonlar haq visoliga yetishib, u bilan qo'shilib ketadi, degan fikrlariga uyg'undur. Upanishadlarda aytilishicha, inson bunga erishishi uchun muayyan axloqlar mezonlariga Karma va Dharma ta'limotiga rioya qilishi kerak. Upanishadlarga ko'ra, har bir inson o'zidagi ilohiy dharmalarga muvofiq yashaydi. Agar inson bu dunyodagi hayotida pokiza, ezgu niyatlarni amalga oshirsa, dunyoga kelishda yana inson bo'lib ketadi. Aksinchi bo'lsa, odam tuban hayvoniy ishlar qilsa, keyingi kelishida joni hayvonga ko'chadi.

Ba'zi vedashunoslar brahmanlar va kshatriydan boshqalar najotga qobil emas, chunki Vedani o'rganishga faqat ular haqli, xolos, deydilar. Upanishadda mavzular xilma-xildir: otasi va o'g'li o'rtasidagi mana bu munozarali upanishadlarning g'oyasi edi.

Mana bu tuzni suvga solib

ertalab oldimga kel.

U shunday qildi.

(Ota) unga dedi:kecha suvga solgan tuzingni

Menga olib kel.

U bo'lsa (tuzni) topa olmadi

Chunki u suvda edi.

(ota) dedi

Mana bu suvni ustidan

Maydani ko'r – qanaqa u?

— Namakob.

— Suv ostidagi mazasi-chi?

— Namakob.

— O'rtasidagi maydasi-chi?

— Namakob.

(Ota) dedi unga:

Sen buni qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilasan.

Narsaning qanaqaligini shundayligicha qabul qilasan.

Upanishadlar ana shunaqa mavzularni keng tushunar edilar. Mana bu she'r ham upanishadlarga xos:

Mana bu uch oqim burch haqida

Qurbonlik qilish: vedalarni

O'rganish – bu birinchisi.

Ikkinchisi esa bo'lmoq, ustoz,

Uyida ta'limni olmoq.

Uchinchisi – ustoz ta'limini olmoq.

Kimki braxmanlikka yetsa, o'lim undan qochadi. Ya'ni o'lmaydigan bo'ladi. Braxmanlar juda ham toza insonlar bo'lganlar. Ular juda ham haqgo'y bo'lganlar. Upanishadlar etikasi, madaniyati baland odamlar bo'lgan. Ulardan olgan har bir she'rlar madhiyalarning ma'nosini olmoq, uqmoq kerak.

Upanshad ta'limotiga ko'ra, ya'ni ular shundayligicha braxmanizmning ma'lumotiga ko'ra, ortodoksal dinlarga xosdir. Yeretik sektalar buni tartib qilganlar. Bu ruhoniyshunos bo'lgan odamlar, bu ta'limotni VI asr oxiri – V asr boshi eramizdan avvalgi budda monaxlar, ya'ni ruhoniylar sariq liboslilar deb ham atalgan. Ularni «Budda» deb ham ataganlar. Uning kelib chiqishi haqida afsonalardan bilish mumkin. Ba'zi budda haqidagi faktlar to'g'ri bo'lgan. U makbeb jamoasi Himolayda yashaydigan kichik bir jamoaning raisining o'g'li bo'lgan.

Budda o'zining ta'limotini shimoliy Gangadagi Koshala va Magadxa podshohliklarida olib borgan. Budda 80 yoshida olamdan o'tgan (486 yoki 473 yil).

Budda bu – bir necha bor qayta tug'ilishlar jarayonida tirilmoq haqiqatga yetishgan va buddizmga diniy najot yo'lini ko'rsatishga qodir zot. Rivoyatlarga ko'ra, Gautamonida, kalilavastu podshohining xotini Maxamayya ilohiy

homiladorlikdan tug'gan. Dunyoga kelgan farzand oyoqqa darhol turib, yettita qadam tashlab, shu zahotiyoq men barcha jonli maxluqlarning eng buyugiman. Bu mening oxirgi tug'ilishim deb xitob qiladi; beshinchi kuni bazm o'tkazilib, marosimda bolaga Sidd Xartxa nomi berilgan. podshoh o'g'lini orzu-havaslarda tarbiyalab, uni hyech bir kamchiliksiz katta qiladi. Siddxartxa ulg'ayib, qo'shni hukmdorlaridan birining qizi Yamadxaraga uylanadi va o'g'il ko'rib, unga Raxula deb ism qo'yadi. Kunlardan bir kuni hyech bir qiyinchilik va namchilik ko'rmay o'sgan bola Siddxartxa, ittifoqo bir keksa chol, bir bemor hamda og'ir mashaqqat tortayotgan rohibni uchratadi. Bir kishining esa vafotiga guvoh bo'ladi. Bundan qattiq ta'sirlangan shahzoda insoniyatni qiyinchilik va azobdan qutqarish yo'llarini izlash uchun saroyni tashlab ketadi. Kunlardan bir kun Siddxartxa, bu vaqtda u 36 yoshda edi, Gaye shahrida Binibisora mulkining Mogaxadxi podshohligidan o'tadi. Sudjota ismli bir kambag'al qiz unga suv va ovqat beradi. U o'shanda beshta rohib bilan yo'lga chiqib, ulardan ajralgan edi, shuning uchun Siddxartxa bir narsaga amin bo'ldi: bu bir o'zi kezib chiqishga ahd qilgani uchun ulardan ajralgan edi, u bu ishlarni insoniyatni azob-uqubatdan qutqarish sari olib bormaydi deb o'ylaydi.<sup>12</sup>

Bir muncha vaqt changalzor o'rmonlarda kezib xorib charchagan, bir daraxtning tagida dam olish uchun o'tiradi va o'zicha to haqiqatni topmaguncha shu yerdan turmaslikka qaror qiladi.

Bu o'tirishning 49 kuni uning qalbidan «Sen haqiqatni topding» degan sado keladi. Maara uning oldiga kelib, uning xotining amakivachchasi Degadatma Suddxartxaning otasini zindonga tashlab, xotinini o'ziga xotin qilib olganini aytganda, Rautama o'z joyidan jilmay o'tirdi va bu bilan Maaraning qahrini keltirdi. U bo'ron, suv toshish, yer qimirlashini chaqirib ham uni qo'rqitilmadi. Shunda Maara o'zining qizlari 3 ta pari qizni Gautamani oldiga chiqarib qo'yganida ham unga yetisha olmadi. U lekin hyech qaysisiga e'tibor ham bermadi. Bu esa o'z navbatida ularni kuchsizlantirdi. Gautama hyech qimir

---

<sup>12</sup> История древнего Востока. В.И.Кузицин тахрири остида. –М., 1979, 365-366-бетлар.

etmay o'tirdi. 49-kuni unga sado kelganidan so'ng, shu paytda uning ko'z oldida butun borliq namoyon bo'ladi.

U hamma joyda shoshilish, qayoqqadir intilishni ko'radi. Hyech bir joyda osudalik yo'q edi. Hayot nihoyasiz uzoqlikni ko'zlab o'tib ketayotgan edi. inson aqli yetmas bir kuch Grishina yashash umidini barchaning tinchini buzar, qaloq qilar va yana qayta yaratar edi. maxa endi Budda kimga qarshi kurashish kerakligini aniqlanadi. Shu ondan u Budda nurlangan deb ataldi. U tagida o'tirgan daraxt esa nurlangan daraxt deb – botxa deb atala boshladi. Oradan bir necha kunlardan, vaqtlardan keyin 60 ta shogirdni tarbiyasiga oldi. O'z atrofiga ruhoniylardan bxitsha, ya'ni gado deganlarni to'pladi. Qaytganidan so'ng o'zining otasini o'g'lini Raulni xotinini qo'l ostidagi xizmatkorlarini qanchalik yomonlik qilgan bo'lsa, Dovadotani ham o'z yo'liga soldi.

Shu kundan boshlab, Budda o'z shogirdlari bilan qishloqma-qishloq yurib, o'ziga yangi izdoshlar orttiradi. Bunda u 40 yil mobaynida Hindistonning turli joylarida bo'ladi, odamlarga o'z g'oyalarini yetkazadi, singdiradi va 80 yoshida Xushnagara degan joyda dunyodan o'tadi. U pave shahrida uyidan Chundonikida cho'chqa go'shtidan tayyorlangan ovqatni yeb, dizinteriya kasaliga uchradi. Bir daraxtning soyasiga dam olib o'tirib, o'sha joyda dunyodat o'tdi. Uning jasad hind udumiga ko'ra kuydirilib, xona 2 ta buddani jamoalariga bo'lib yuborildi va har bir jamoa uni dafn etgan joyda ibodatxona stupa barpo etdi.

Buddaning hayoti haqida turli asotirlar paydo bo'ldi. Budda ko'p yillar davomida yer yuzidagi turli mavjudotlar qiyofasida qayta tug'ilgan.<sup>13</sup>

Buddaning o'limidan so'ng uning shogirdlari radjagrixе Magirdxining paytida to'plangan edi. Ana shunday katta majlisda Buddaning gibirdi Upame Vinaya Shtaxuni o'qidi yana bir shogird Ananda to'planganlarga summa petaku tilini o'qib berdi.

---

<sup>13</sup> Бэшем А. Чудо, которым была Индия. –М., 1977, 276-279-бб.



Ikkinchi buddalar to'planishlari Vaytalide Buddaning o'limidan 100 yil o'tgandan keyin bo'ldi. Boshqa dinlardan farqli ravishda Buddizmda hech bir o'zgarish yo'q, hech bir o'zgarmas narsa yo'q. Hatto xudo ham o'zgaruvchan, deb uqtiriladi. Faqat on yoki lahzalar silsilasi mavjud bo'lib, ular hech biri yo'qolib, keyingisiga o'rin beradi. Buddizm ta'limotiga ko'ra, inson doimo azob-uqubatga mahkum va bunga uning o'zi sabab bo'ladi. Zero, u garchand befoyda bo'lsa-da, o'z hayoti va farovon turmushini saqlab qolishga harakat qiladi; azob-uqubattan qutulish uchun ko'ngli xush ko'rgan barcha narsalardan o'zini tiyish darkor.

Muntazam ravishda yolg'ondan uzoq bo'lish, zinodan o'zini tiyish hamda meditasiya, ya'ni ongli oliy haqiqatga yetishishga qaratish, «badxa», ya'ni «xotirjamlik»ka va oxir-oqibatda nirvanaga olib keladi. Nirvanaga yetishish uchun talab qilinadigan axloqiy barkamollik bir emas, bir necha hayotni taqozo etishi mumkin.

Buddizm qadimiy hind dinida falsafiy ta'limotlari asosida vujudga kelgan o'ziga xos nazariyot va amaliyotdan iborat bo'lgan diniy tizimdir. Buddha yangi diniy qonun-qoidalar, rasm-rusumlar ishlab chiqmagan, balki har bir inson tug'ilish va o'lim mashaqqatlaridan qutilishi uchun amal qilishi lozim bo'lgan bir necha ko'rsatmalarni ishlab chiqdi. Uning ta'limoti insonning xayolida, ishlarida va o'zini tutishida samimiy olijanoblik g'oyasini ilgari suradi. U gunohsizlik ta'limotini inkor qiladi, hayvonlarni vahshiyona qurbon qilishni qoraladi, varna tizimini, ya'ni kasta tizimini va undagi ruhoniylarning boshqalardan ustunligini inkor qildi.

Budda yaratuvchi oliy kuchning borligiga shubha va ishonchsizlik bildirgan. Uning fikriga, eng muhimi, insonning shaxsiy kamoloti va ezgu turmush tarzidir. Buddha ta'limotining asosida hayot – bu azob-uqubat va najot yo'li mavjud degan g'oyalar yotadi. Buddizm ta'limotiga ko'ra, inson o'ziga xos mavjudot bo'lib tug'iladi, o'zini-o'zi halok qiladi va qutqaradi. Buddha o'lganidan keyin 200 yil ham bu din davom etgan. Ashoka o'zining dinning

davomichisi bo'lganligi va 5 ta guruhga bo'lgan: satja, braxman, idjivin, pirvantxi va boshqa sektorlardir.

Imperator Ashokaning yordami bilan buddizm butun Hindiston va Shrilankaga ham kirib bordi.

Buddizm juda ham rivojlanib va yoyilib ketgandi. Braxmanizm, hinduizm, jaynizmdan ham birinchi o'rinda buddizm turadi. Kanishka davrida I-II asrda Xolimirdd tashkil etilgan. Sarvas mivadinlar ta'limoti bo'lib, uning nomi «maxavibxash» degan nom bo'lgan. Mana shular buddizmni ikki yo'nalishga bo'lmoqchi bo'lganlar, ya'ni maxayana va xinayanaga. Mil. avv. 273-272 yillarda hukmronlik qilgan imperator Amana davrida buddizm keng hududlarga jadal tarqaldi. U buddizm monaxlarga, rohiblarga ularning Hindiston bilan chegaradosh davlatlarga qilgan missionerlik harakatlariga xayrixohlik bildirardi. Buddist missionerlari o'z prinsiplarida mahkam turib, xayrixohlik va kelishuvchilik bilan harakat qildilar.

Buddizm jamoalari begona din madaniyat va urf-odatlar ustun bo'lgan sharoitlarda asrlar mobaynida o'zlarini saqlab qolish, fursat kelganda ularga ta'sirini o'tkazish qobiliyatlariga egadirlar. Ularning bu xususiyatlari Hindistonda musulmon hukmdorlari davrida, Shri Lankada portugalar, gollandlar va inglizlar mustamlakasi davrida, Xitoyda konfusiychilar davrida mazkur hududlarga buddizmning yoyilishida yaqqol namoyon bo'ladi. XIII asrda Sharqiy Hindistonga vadjrayana oqimi kirib keldi va Bengaliya va Bixaraga yoyildi. Buddizmning bu formasi XI asrda Gibliyoda o'z o'rnini tutgan. Missionerlar bo'lsa vadjrayana monastirlaridan Bixaraga kirib kelgan.

Buddizm jamoasiga hamma ham a'zo bo'lishi mumkin, lekin qullar, askarlar, qarzdorlar qabul qilinmagan. 8 yoshdan a'zo bo'lish mumkin, lekin 20 yoshdan haqiqiy a'zo bo'lganlar. Jamoaga qabul qilish uchun unga sariq va qizg'ish ruhoniylar kiyimi kiydirilib, sochni oldirib tashlardilar, keyin uchta sehrli so'z va 10 ta farzni budda bo'lish uchun aytishi kerak edi:

1. Hyech kim yoki hyech narsani hayotdan judo qilmaslik.
2. Yolg'on so'zlamaslik.

3. O'g'rilik qilmaslik.
4. Jinsiy aloqaga kirmaslik.
5. Mast qiluvchi ichimlik ichmaslik.
6. Kunning ikkinchi yarmidan ertangi sahargacha ovqat tanavul qilmaslik.
7. Uch kiyimdan ortiq hych narsa bilan tanani bezamaslik.
8. Ommaviy ko'ngilxushliklarda ishtirok etmaslik va tomoshabin sifatida qatnashmaslik.
9. Baland va yumshoq o'rinda yotmaslik.
10. Pul ishlatmaslik.

Budizm qadimiy hind falsafiy ta'limotlari asosida vujudga kelgan o'ziga xos nazariyot va amaliyotdan iborat bo'lgan diniy tizimdir.

Budda keyingi diniy qonun-qoidalar, rasm-rusumlar ishlab chiqmagan, balki har bir inson tug'ilish va o'lim mashaqqatlaridan qutulishi uchun amal qilishi lozim bo'lgan bir necha ko'rsatmalarni tiklab chiqdi, xolos. Uning ta'limoti insonning xayolida, ishlarida va o'zini tutishida samimiy oliy javoblik g'oyasini ilgari suradi. U vedalardagi gunohsizlik ta'limotini inkor qildi, hayvonlarni vahshiyona qurbon qilishni qoraladi. Varna tizimini va undagi ruhoniylarning boshqalardan ustunligini inkor qildi. Budda yaratuvchi oliy kuchning borligiga shubha va ishonchisizlik bildirgan. Uning fikricha, eng muhimi insonning shaxsiy kamolti va ezgu turmush tarzidir.

Budda ta'limotining asosida «Hayot – bu azob-uqubat» va najot yo'li mavjud degan g'oyalar yotadi. Buddizm ta'limotiga ko'ra, inson o'ziga xos mavjudot bo'lib tug'iladi, o'zini o'zi halok qiladi yoki qutqaradi. Bu g'oyalar Buddaning ilk da'vatidan ta'birlangan to'rtta haqiqatda o'z ifodasini topgan.

Birinchi haqiqat – azob-uqubat mavjuddir. Har bir tirik jon uni boshidan kechiradi. Shuning uchun har qandy davlat dunyoviy hayot qiynoq, azob-uqubat, tug'ilish – qiynoq, kasallik – azob, o'lim – kulfat, qiyinchilikka duch kelish – mashaqqat, ayriliq – ezilish, orzu-havasga yetolmaslik – uqubat. Dunyo tuzilishining asosiy qonuni bir-biriga bog'liqlik. Hych bir narsa ma'lum bir sababsiz yaralmaydi. Lekin har bir hodisa yoki harakatning birlamchi sababini

aniqlash mumkin emas. Shuning uchun buddizm dunyoni shu holicha qabul qilishga chaqiradi.

Buddizm ta'limotiga ko'ra, har qanday narsa yoki hodisa, u xoh moddiy, xoh ma'naviy bo'lsin, dxarmalardan tashkil topgan. Ular o'z xususiyatlariga ko'ra harakatsiz bo'lib, dxarmalarni qo'zg'atuvchi kuch insonning xayol va so'zlaridir. Obyektiv haqiqat bu doimiy ravishda o'zgarib turuvchi dxarmalar oqimidir. Harakatdagi dxarmalar o'z mavjudligini besh shakli: tana, sezgi, his-tuyg'u, harakat, anglashni yaratadi. Mazkur besh shakl insonni tashkil qiladi. Inson ular yordamida yashaydi, borliq bilan aloqada bo'ladi, yaxshi yoki yomon ishlarni bajaradi. Besh elementning o'zaro mavjudligi insonning o'limi bilan barham topadi. Insonni tashkil qiluvchi besh shakl (skandx) o'z navbatida qayta tug'iladi. Yangi tananing xususiyatlari asos bo'luvchi besh natijani beradi: faoliyat, gumrohlik, xohish, istak va me'yor. Bu jarayon «hayot g'ildiragi»ni tashkil qiladi.

«Hayot g'ildiragi»da doimiy ravishda aylanib inson abadiy qiynoqqa duchor bo'ladi. Ikkinchi haqiqat – qiynoqlarining sabablari mavjuddir. Inson moddiy narsalar yoki ma'naviy qadriyatlardan foydalanib, ularni haqiqiy va doimiy deb hisoblaydi hamda doimo ularga ega bo'lishga intiladi. Bu intilish hayot davomiyligiga olib boradi. Yaxshi yoki yomon niyatlardan tuzilgan hayot daryosi orzular va intilishlar sababli kelajak hayot uchun Xarma hozirlaydi. Demak, qayta tug'ilish, qaytadan qiynoqlarga duchor bo'lish davom etadi. Aksariyat buddistlar fikricha, Buddadan keyin hech kim nirvana holatiga erisha olmagan.

Uchinchi haqiqat – qiynoqlarni tugatish mumkin. Yaxshi yoki yomon niyatlardan, intilishlardan butunlay o'zilish nirvana holatiga olib boradi. Bu holatda inson qayta tug'ilishdan to'xtaydi.

Buddistlar fikricha, nirvana holati «hayot g'ildiragi»dan tashqariga chiqishlik degan fikrdan ajralib, insonning hissiy tuyg'ularini to'la tugatishdir.

To'rtinchi haqiqat – qiynoqlardan qutilish yo'li mavjuddir. Bu yo'l sakkizta narsaga amal qilish: to'g'ri tushunish, to'g'ri harakat qilish, to'g'ri muomalada bo'lish, fikrni to'g'ri jamlashdir.

Buddizm ta'limoti asosan uch qismga bo'linadi:

- 1) axloq;
- 2) meditasiya;
- 3) donolik.

1. Axloq normalari – Buddaning besh nasihati – «Pancha ishla»:

- 1) qotillikdan saqlanish;
- 2) o'g'rilikdan saqlanish;
- 3) gumrohlikdan saqlanish;
- 4) yolg'on, qalbaki narsalardan saqlanish;
- 5) mast qiluvchi narsalardan saqlanish.

2. Meditasiya:

1) to'g'ri tushunish (to'g'ri e'tiqod qilish) – Buddaning birinchi da'vatidan so'z yuritilgan to'rt haqiqatni bilish va unga ishonish;

2) to'g'ri niyat qilish – dunyoviy lazzat-halovatlardan xalos bo'lishga keraksiz fikrlar va boshqalarga zarar yetkazib qo'yishdan saqlanishga intilish;

3) o'zini to'g'ri tutish – o'ziniki bo'lmagan narsaga ko'z olaytirmaslik, ortiqcha hissiyotga berilmaslik;

4) to'g'ri anglash – o'z tanasi va o'ziga ruhiga o'zini yo'qotib qo'ymaydigan darajada nazoratda bo'lish hamda bunda ehtiroslar va iztiroblarga chek qo'yish;

5) to'g'ri harakat qilish – o'zidagi yomon tuyg'ularni jilovlash hamda ezgu tuyg'ular va harakatlarni rivojlantirish;

6) to'g'ri hayot kechirish – noma'qul hayot tarzidan saqlanish;

7) to'g'ri fikr yuritish – kamolotning to'rt bosqichini ketma-ket bosib o'tish;

8) to'g'ri gapirish – yolg'ondan, tuhmatdan, haqoratdan va befoyda gaplardan saqlanish.

3. Donishmandlik – bu buddizmning asosiy maqsadi bo'lib, narsalar tabiatini to'g'ri tushunishdan iborat.

Yuqorida ko'rsatilgan uch amaliyot bosqichini o'tagan inson oxir-oqibat oliy saodatga, ya'ni nirvana holatiga erishadi.

Nirvana so'zining lug'aviy ma'nosi «uchish», «so'nish». Unda hayotning har qanday ko'rinishiga intilish yo'qoladi. Rohiblar jamoasi asosan Buddizm mxeravadisiga xosdir.

Xinayana buddizmning asosiy yo'nalishidan biridir. Xinayana «kichik arava» ma'nosini anglatib, u diniy yo'nalish sifatida mil. avv. I asrda shakllangan. Biroq uning asosiy qoidalari ancha avval Tripitakada bayon qilingan. Xinayana ta'limotiga ko'ra, dharmalar tabiatini o'rganishga va nirvanaga, ya'ni holatiga yetishi mumkin. Keyinchalik Xinayanada juda ham murakkab va dabdabali ibodatlar buddizmning muqaddas joylariga ommaviy ziyoratlar joriy qilingan. Bu yo'nalish Sharqiy Hindistonda, Shri Lanka, Hindi-Xitoy davlatlarida tarqalgan. Xinayana bilan bir qatorda buddizmdagi ikkinchi yo'nalish asosiy yo'nalish bo'lib, u ruhiy kamolot ahdiga rioya etuvchi xudoga iltijo qiluvchi rohiblarga in'omlar berib yordam ko'rsatuvchi har qanday oddiy dindor najot tilashi mumkin, degan ta'limotga asoslanadi. Unga ko'ra, Budda tanasi jonzotlarni azobdan qutqarish uchun turli maxluqotlar shakliga kirishi va hayot zanjirining barcha omillarini uni o'rganishi, anglashi mumkin. Bu narsa cheksiz Budda ramplarining xudolarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Bu xudolarga ishonish yo'llari barcha uchun mumkin bo'lganligi sababli u «katta arava» nomini olgan.

Buddizm ta'limoti bir qator xitoblar shakliga keltirilgan to'plamlarda bayon qilingan. Ular din eng asosiy Tripitaka (yoki Tipitika) – uch savat ma'nosini anglatadi. U uch qismdan iborat bo'lganligi uchun shunday nom bilan atalgan. Uning qo'lyozma nusxasi Shri Lankada saqlanib qolgan. U milodning boshlarida kitob shakliga keltirilgan. Ular Budda targ'ibotining haqiqiy bayoni

hisoblangan sutra matnlari – sutra-pitaka rohiblik axloqi, xonaqohlar nizomlariga bag'ishlangan vinnaya matnlari Vinaya-pitaka, buddizmning falsafiy va psixologik muammolarini bayon qilib berishga bag'ishlangan abxixorma mataxadan – Abxixarma pitakadan iborat.

Keyinchalik shakllangan saskrit, xitoy, tibet, kxmir va yapon tillaridagi buddizmga oid adabiyotlar ancha keng tarqalgan, ammo ularning ilk buddizm tarixi uchun ahamiyati ozroq. Budda hayotiga tegishli rivoyatlarning asosiy Tripitakada jamlangan.

Buddaga e'tiqod qilinsa bas, kengroq qaralganda Sangxa muqaddaslik va qudrat xazinasi. Qisqasi, Buddizm – Buddaga ergashib, Dxarma talablarini bajarish va Sangxa jamoasining a'zosi bo'lib qolishdir.<sup>14</sup>

Jaynizm va boshqa sitalar Buddaning davomchisi bo'lgan. Varaxamananing ta'limotini jaynizmda ko'rish mumkin. Uni maxanariga deb atab, «Ulug' qahramon» ma'nosini anglatgan Jaynizm tarixi buddizmning tarixidan farq qiladi. Jaynizmning kelib chiqishi haqida ko'plab afsonaviy rivoyatlar mavjud. Rigveda kitobida jaynizmning ikki tirtxikadalari Rishabxa va Arishtanem haqidagi rivoyat keltirilgan. Bu din faqat Hindistonda rivojlangan. Buddizmdagi jaynizmning farqi shundaki, bir davom etgan Bardxamona tarixda bo'lgan odam bo'lgan. Varaxamana o'n ikki yil darveshlik qilib, och-nahor yurib, o'zini shu dinga munosibligini ko'rsatgan. Birinchi vaqt u faqat bitta ko'ylakda yurib, uni hych ham o'zgartirmay tanasidan o'n uch oy deganda yechib, qolgan yillarini u yalang'och o'tkazgan. Olti yil uning yonida Goshala Maskaritura bo'lgan, keyinchalik ular arazlashib qolgan va Goshala Vardxamanidan ketib, adjivik sektasini yaratgan. Rilabxa va Arishtanem haqidagi rivoyat, ya'ni ulardan birinchisi – Rishabxa jaynizm ta'limotining asoschisi hisoblanadi. Bu rivoyatlarda Rishabxa shaxsida iloh Naroyana, ya'ni Vishnu mujassam bo'lgan. Bu ma'lumotlar jaynizmning veda dinlaridan ham qadimiyroq ekanligini ko'rsatadi. Jaynizm dini vakillarining e'tiqod qilishicha,

---

<sup>14</sup> Бэшем А. Чудо, которым была Индия. –М., 1977, 282-288-бб.

bu ta'limotga yigirma to'rt tirtxakar asos solgan. Ularning barchasi kshatriylar xonadonidan bo'lgan. Ushbu tirtxakarlarning yigirma ikkitasi haqida ma'lumot deyarli yo'q. Yigirma uchinchi Varaxamana Maxaviradan 250 yil avval yashagan. Pftvanadxa Banoraye podshohi Ashvasanning o'g'li bo'lgan. Biroq rohiblik yo'lini ixtiyor etib, otasining saroyini tark etgan. U o'zining keyin juda ham chiroyli nizomga solingan diniy ko'rsatmalar qoldirgan.

Vardxamananing ota-onasi oila a'zolari Parshvanadxaning dinida bo'lganlar. Vardxamanada yoshligidan jaynizm ta'limotiga kuchli qiziqish paydo bo'lgan. Shunday qilib, Vardxamananing o'zi jaynizmning navbatdagi va so'nggi tirtxakari bo'lib yetishgan.

Vardxamana mil. avv. VI asrda (599 y.) Hindistonning Bixar shtatida boy oilasida tug'ilgan. Otasi Sidxardxa Jnatrix qishlog'ining kshatriylar sulolasi boshlig'i edi. onasi Trisala Michchxavi sulolasidan bo'lgan mashhur podshoh Vaymali hukmdori chetakining singlisi edi. Magadxa podshohi Bimbisara Chetakning qizi Chillanaga uylangach, Vardxamana qudratli Magadxa sulolasi bilan qarindosh bo'lgan. Buning natijasida uning oldida oliy darajada ta'lim olish ilmi va san'atining barcha sohalari bilan tanishish imkoni paydo bo'ldi.

U Yatoda ismli qizga uylandi va undan qiz farzand ko'rди. Aynan mana shu qizining eri Jamali Maxaviraning birinchi shogirdi, keyinchalik esa jaynizm ibodatxonasining hinduizmdan ajralib chiqishining tashabbuskori bo'ldi. Bu eng oliy bilim bo'lib, Vardxalkning 42 yoshida shodlik va qayg'uardan butkul ozod qilgan va uni yuqori darajadagi diniy ustozlarga beriladigan Xino nomi bilan mashhur qildi.

Maxavira ko'p yillik sayohatlari davomida ko'plab insonlarni o'ziga ergashtirdi. Uning shogirdlari «kishandan ozod qilinganlar» deb atala boshlandi.

Vardxamana Maxavira rohiblar, oddiy erkak va ayol insonlar barobar e'tiqod qila oladigan diniy ta'limotga asos soldi. Maxavira mil. avv. 524 yilda 73 yoshida vafot etdi.

Jaynizm adabiyotida keltirilishicha, u nirvana – so'nggi ozodlik holatiga erishgan.



Jaynizm ta'limotining asosiy g'oyasi deyarli barcha hind dinlari uchun umumiy bo'lgan normalar va nirvana haqidagi ta'limot hisoblanadi. Nirvanaga erishgan inson qayta tug'ilishdan ozod bo'ladi. Buni esa faqat tarki dunyo qilganlargagina erishishi mumkin, xolos. Shuning uchun ham ushbu ta'limotda tarkidunyochilikka alohida e'tibor beriladi.

Inson dunyoda o'zining barcha ehtirosalaridan voz kechgan, o'z nafsini tiyishi, o'z-o'zini yengishi – yangi norma hosil bo'lishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Natijada normaning kuchi yemirilib, uning ruhi kishanlardan ozod bo'ladi. Kishining karmasi qanchalar zaiflashsa, uning ichki dunyosi shuncha boyib boradi. Bu jarayon ruhning to'la ozod bulgunigacha davom etadi va nihoyat ruhning butunlay ozod bo'lishi – nirvana holati yuz beradi. Dunyoviy kishidan ham tarkidunyo qilgan rohibdan ham ma'lum axloqiy qoidalarni bajarish talab qilinadi. Chunki hayotning maqsadi ruhni yomon karmadan saqlash yangi karmaning yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik, borini ham asta-sekin yo'q qilib yuborishdan iborat. Buning uchun dunyoviy odam besh narsaga amal qilishi kerak: birinchisi – zarar yetkazmaslik (axines), ikkinchisi – rost so'zlash, ya'ni sat'ya, uchinchisi – o'g'irlik qilmaslik (asteya), to'rtinchisi – zino qilmaslik, ya'ni braxmapare, beshinchisi – tamagirlik qilmaslik, ya'ni aparigraxa. Mana shular insonning axloqiy mezonini tashkil qiladi. bundan tashqari u yana ikki asos – chin e'tiqod va to'g'ri bilim tamoyillariga ham amal qilishi lozim. Ularning birinchisi – jaynizm diniga e'tiqod qilishni bildirsa, ikkinchisi – ruhning abadiy ozodligi va hayotning har bir jismda mavjudligini bilishdir. Rohiblar uchun bir muncha murakkab qoidalar ishlab chiqilgan.

Jaynizm ta'limoti borliqning iloh tomonidan yaratilgani va uning borliq ustidan nazorat qilib turishini tan olmaydi. unga ko'ra, ruh abadiy mavjudot, olam esa azaliydir. Ruh moddiy tanani yengib o'tib, abadiy hayotga yetishishi mumkin.

Maxaviraning fikricha, dunyodagi har bir jism uning jonli yoki jonsiz bo'lishidan qat'iy nazar qandaydir darajadagi anglash xususiyati bilan yaratilgan. Shuning uchun jaynizm axinsa – zarar yetkazmaslik qoidasiga

ko'proq e'tibor beriladi, ya'ni jonli yoki jonsiz narsalarga ozor yetkazmaslik talab qilinadi.

Maxavira vedalarning ulug'ligini inkor etdi va veda urf-odatlariga braxmanlarning hukmronligiga qarshi chiqdi. U insonni ma'naviy yakkalikka olib boruvchi, hayot qonunlarini, abadiy rohiblikni, ruhni ozodlikka olib boruvchi deb hisoblangan nafsni tiyish fazilatni keng targ'ib etdi. Maxavira jaynilarning diniy tashkilotiga asos sodi. Uning ashaddiy rohiblik tamoyillarini va sodda bayon qilingan ta'minotini ko'pchilikni o'ziga jalb qildi. Uning maktab boshliqlari nomi bilan mashhur bo'lgan 11 shogirdi bo'lib, ular Maxavira vafotidan keyin uning ta'limotini davom ettirganlar. Jaynizmning asosiy qoida-tamoyillarini o'z ichiga olgan 15 ta asar mavjud bo'lib, ular Maxavira tomonidan bitilgan. Biroq mil. avv. III asr atrofida og'zaki matnlarni kitob holiga keltirish maqsadida qilingan harakatlarning oqibatida jaynizm ikki oqim: oq kiyim kiyganlar va moviy kiyim kiyganlarga bo'linib ketgan.

Moviy kiyim kiyganlar jaynizmning asl holatini saqlab qolishga ko'proq ahamiyat berganlar. Ular Rishabxaning qadimiy qonunini yo'qolgan deb hisoblab, oq kiyim kiyganlardagi matnlarni haqiqiy emas deb e'lon qildilar.

Jaynizmning ikki oqimga bo'linishi har ikki oqimning o'ziga xos urf-odatlarini, kiyinishi va boshqa hayotiy qirralarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Vaholanki, ular asosiy diniy qoidalarda o'zaro farqlanmaydilar.

Hozirgi kunda dunyoda bir yarim milliondan ortiq jayniylar mavjud. Ular asosan Hindistonning Rajputan, Gujarat va bir qator janubiy mintaqalari Madxiya Bxarat shtatlarida istiqomat qiladilar.<sup>15</sup>

Hinduizm juda murakkab din bo'lib, turli dinlar qorishmasidir. U braxmanizmdagi bir necha jihatlarni qabul qilgan bo'lsa-da, kasta ta'limotini inkor etdi. O'sha davrda Hindistonda kasta tuzumini saqlab qolishga braxmanizm dinini isloh qilib, qayta tiklashga harakat boshlandi. Bu harakat braxmanizm bilan buddizm o'rtasidagi kurashni ifodalovchi hinduizm edi. bu

---

<sup>15</sup> Антонова К.А., Бонгард-Левин Г.М., Котовский Г.Г. История Индии. –М., 1979, 99-101-бб.

dinda eng ko'p uchratiladigani Krishna xudosidir. «Maxabxarata» juda ham ko'p rivoyatlar Krishna va Vishnu xudosiga bag'ishlangan.

«Mahabxorat» eposi Hindistonning eng katta xalq og'zaki ijodining namunasi. «Maxabxarata» va «Ramayana» bu ikkita juda ham qadimgi hind eposiga kiradi. Bulardan bizgacha yetib kelgani «Maxabxarata» nag'masidir. Shunisi qiziqki, hinduizm o'zining asosi hisoblanadigan vazizm va braxmanizmdan tashqari farqlanadi. Unda yangi braxmanizm dinlari, to'g'rirog'i, oqimlari mujassamdir. Ularning barchasini umumiy jihatlariga qarab bir guruhga jamlab: tushuncha va qonunlarning asl manbai bo'lgan vedalarning muqaddas yangi ustozning tan olinishi – muqaddas joylarga ziyoratga borish: sanskritning muqaddas til ekanligi va nihoyat sigirning muqaddas ekanligi. Bu besh qoida yoki aqida umum tomonidan tan olingan bo'lsa-da, ko'p sonli e'tiqod qiluvchilar orasida o'ziga yarasha farq va o'ziga xoslik kasb etgan.

Hinduizmda keyingi davrda vedalardan tashqari xalq og'zaki ijodi namunalari, jumladan, «Maxabxarata» ham muqaddas yozuvlar qatoriga qo'shilgan.<sup>16</sup> Hinduizmda ham braxmanlar asosiy o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham mazkur adabiyotlarning ko'pchiligi braxmanlar tomonidan yaratilgan. Ular eski aqidalarning zamon talabiga javob bermasligini ko'rib, yangi qonun-qoidalarga mos ravishda turli oqimlarni yuzaga keltiradilar. Ular shu yo'l bilan o'z raqiblari hisoblangan buddistlarga qarshi kurash olib bordilar.

Hinduizm braxmanizmdan katta farq qiladi. Unda Maxabxarata va boshqa she'riy matnlar qadimgi sanskrit matnidan zamonaviy hind tiliga tarjima qilinib, muqaddasligi jihatidan asl matni bilan bir xil hisoblanadi. Hinduizm ta'limotiga ko'ra braxmanlar nafaqat oliy tabaqa vakillaridan, balki oddiy xalq ichidan, hatto ayollardan bo'lishi ham mumkin.

Hinduizmda iriluti uchlik – Braxma, Vishnu, Shiva xudolari asosiy xudolar hisoblanib, Braxma ularning eng kattasi – dunyoni yaratgan xudo

---

<sup>16</sup> Дмитриева Н.А., Виноградова Н.А. Искусство древнего мира. –М., 1989, 153-154.

sanaladi. Biroq hinduizm da faqat Vishnu va Shivagagina sig'inadilar. Shunga binoan, hinduizm ikki asosiy oqimga bo'linadi. Shivaga sig'inuvchilar va Vishnuga sig'inuvchilar. Shiva oddiy xalq ommasi – kambag'allarning ilohi hisoblanadi. U rigvedaning birinchi rus xalqlarida Rudra nomi bilan zikr etilgan, Atxarvedada Rudraning roli oshib boradi. Yajurvedada Rudra Agni timsolida berilgan. u Imana Ishvara, Maxaveda nomlari bilan ham ataladi.

Hindistonda shivaizmning o'n uchga yaqin asosiy oqimlari mavjud. Shivachilar orasida asosiy oqim sifatida tridan dinalar va smartlarni aytib o'qish mumkin.

Hinduizm da bayramlar ma'lum bir oqimga tegishli bo'lsa-da, ular ommaviy tarzda nishonladi. Qadim zamonlardan ulug' bayramlar qatorida muqaddas joylarni ziyorat qilishi Hindiston diniy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Vedalarda faqatgina ayrim joylarini ziyorat qilishga ruxsat etilgan bo'lsa, Maxabxaratada Hindistonning shimolida joylashgan bir necha muqaddas ziyoratgohlar aniq ko'rsatib o'tilgan.<sup>17</sup>

Hinduizm aqidaviy, marosimiy va ramziy sohalardagi juda ham murakkab tizimi unga e'tiqod qiluvchilarning turlicha talqinida yana ham murakkablashib ketadi.

Barcha hinduizm ilohiyotchilari uni animistik va butparastlik asoratlaridan tozalab, taraqqiy etgan dinlar qatoriga ko'tarishga harakat qilsalar-da, but va ruhlarga sig'inish xususiyatlarini to'la saqlab qolgandir.

Vishnuizmchilar uchun Vishnu birinchi darajali ilohdir. Oldingi kanonlar, ya'ni ta'limotlarda yozilishicha, Vishnu meni kalla mish nomini ilonda, Okean tubida og'ir uyquda yotibdi va u yotgan yerdan nilufar guli o'sib chiqadi. Shu nilufarda Braxma tug'ilib, u yer yuzini dunyoga keltirgan.

Vaykultxe falakdan uyg'onib, Vishnu obrazida dunyoni boshqaradi, degan tushunchalar mavjud. Vishnu hozirgi Hindiston panteonida birinchilik uchun kurashayotgan ikkinchi ilohdir.

---

<sup>17</sup> Рубинштейн Р.И. Древний Восток. –М., 1974, 137-б.

Rigvedada taylatda jon ato etuvchi quyosh xudosi Vishnu birinchi darajali iloqdir. Unda Vishnu juda saxiy qilib tasvirlangan. Ibodat paytida uni Savitar, Roxita, Sura, Adita nomlari bilan ham ataydilar. U butun koinotni uch qadamda bosib o'tishi va havoda muallaq yura olishi xususiyati bilan tasvirlanadi. Yarim inson, yarim xudo shaklidagi qahramon Krishna Vishnuga qo'shilib ketgan, deb tasavvur qilinadi. Maxabxarata va Ramayana dostonlarida sevatura, ya'ni insonning vishnuga qo'shilib ketishi haqida so'z yuritiladi. Vishnu gohida to'rt qo'lli qilib tasvirlanadi. Vishnuning oilaviy ibodat marosimlari ba'zan juda murakkablashib uzoq davom etadi. U hiech qachon inson yoki hayvonni qurbonlik qilishni talab qilmagan.

Vishnuizm bayramlari turli-tuman: ba'zilar umumiy, ba'zilar esa tabaqalarga ajratilgan holda o'tkaziladi. Ular asnosida duolar o'qib, ta'zim bajo keltiriladi. Ommaviy diniy marosimlarda qatnashiladi, turli hadya va qurbonliklar ataladi, shuningdek, ibodatxona yaqinidagi yoki ichidagi muqaddas hovuzda cho'milish majburiydir. Bu marosimlar ba'zi paytda bir necha kunga ham cho'zilib ketadi. Ularda faqatgina ruhoniy rahbarligida hadyalar yoki qimmatbaho bo'lgan yoki qimmatli toshlar xudolarga hali ruhoniylarga aytiladi. Qurbonliklar turli gullar, xushbo'yliklar, ovqatlardan, xudolar nomiga atab ozod qilinadigan yoki so'yiladigan hayvonlardan bo'ladi. Sigir qadimdan hindlar e'tiqodida muqaddas hayvon hisoblangan.<sup>18</sup> Shuning uchun uni qurbonlik qilish yoki boshqa maqsadlarda o'ldirish katta gunoh hisoblangan. Sigirning besh mahsuloti: sut, suzma, sariyog', siydik va tezakdan tayyorlangan panchagavem hinduiylar e'tiqodida odamlarini va uylarni poklashda alohida kuchga ega. Sigir muqaddas hayvon hisoblanganligi uchun u xudolar bilan bir qatorda ehtirom qilinadi. U keyinchalik tirik butga aylanib, Shivaning ma'budlik o'rnini to'ldirdi. Vishnuizm ham o'zining muqaddas hayvoni bor. U maymundir. Rigvedada Vrishaxana timsolida Xanumannning ajdodini ko'rish mumkin degan rivoyat keltiriladi. Shuning uchun maymun Ram, ya'ni «Ramayana» dostonidagi

---

<sup>18</sup> Бэшем А. Чудо, которым была Индия. –М., 1977, 325-326.

odam-xudoning ittifoqchisi maymun xudo Xanumanning vakili sifatida ulug'lanadi.

Bundan tashqari ilon, sher, fil, ba'zi qushlar ham ilohiylashtiriladi. Umuman olganda, Hinduizmda deyarli har bir Hindiston hayvoni xudo yoki xudoning hamrohi deb e'tiqod qilinadi.<sup>19</sup>

Vishnu singari Shiva ham ommabop xarakterdagi xudo hisoblanib, u eng mudhish joylarda – jang maydonlari, yo'l chorrahalarda, o'liklarni yoqish joylarida bo'ladi deb hisoblangan. Shivaning bo'ynida kalla suyaklaridan iborat taqinchoqlarda tasvirlanib, uni yovuz kuchlar – yovuz arvohtar, ruhtar qurshab yuradi. U o'lim va vaqtni, ya'ni barcha narsani halok qiluvchi timsolida ko'rilgan.

Shu bilan birga, Shiva buyuk asket obrazida hamda barcha asketlarning rahnamosi sifatida ko'rinadi. U Himolaydagi Kaylasa tog'ida meditasiya bilan shug'ullangan holda yo'lbars terisi ustida butun borliqni ushlagan holda o'tiribdi. Uning uzun sochlari (djata) tugun shaklida tepasida tugilgan. Unda yosh oy yarqirab turibdi hamda muqaddas Gang suvlari uning sochlaridan oqib tushmoqda. Peshonasining qoq o'rtasida uchinchi ko'z – oliy donishmandlik hamda ko'ra bilish xususiyatiga ega; uning tomog'i qop-qora – zahar izidan darak beradi. Shiva ilonlar hukmdori, ular uning bo'ynini va qo'llarini o'rab turadi. Uning gavdasi kul bilan qoplangan, bu esa asketizmning simvoli hisoblanadi. Uning yonida quroli – uch tig'li nayza (trizub) bor. U xotini – go'zal Parvati va u minib yuradigan ho'kiz – Nandi yonida tasvirlanadi.

Boshqa bir obrazlarda Shiva janubga yuzi qaratilgan holda (Dakishnamurti) tasvirlanadi; bu holda u butun dunyo oqsoqoli ko'rinishida gavalanib, bir oyog'i taxtda, boshqa oyog'i bilan yerga tekkizgan holda, qo'llari tushuntirayotgan holda, ko'tarib turgan holda tavirlangan.

Afsonalarda Shivaning Himolay qizi Parvatiga uylanishi aytib o'tiladi.

---

<sup>19</sup> Рубинштейн Р.И. Древний Восток. –М., 1974, 134-135-б.

Taraka ismli yovuz kuch xudolarga juda xalaqit qilgan, qaysikim unga Shiva va tog'lar qizidan dunyoga kelgan farzand tomonidan o'ldirilishi taqdiriga yozilgan. Lekin Shiva meditasiya bilan o'ta mashg'ul bo'lganligi sabab, farzand ko'rish ehtimoli xudolarga ortiqcha ko'rindi. Shunday bo'lsa-da, xudolar Himolayning go'zal qizi bo'lmish Parvatini Shivaga xizmat qilish uchun jo'natadi. Lekin go'zal malak qanchalik xudoni o'ziga qaratishga harakat qilmasin, u e'tibor bermaydi. Sevgi xudosi Kama bu mojaroda azob chekadi va oxir oqibatda Shivaning uchinchi ko'zi tomonidan kuydirib yuboriladi. Oxirida Parvati xudoga taqlid qilib, asketizmga o'zini bag'ishlaydi. O'zining ustidan chiroyli zeb-ziynatlarini yechib, qo'shni tog'da joylashadi. Shiva uning yangi ko'rinishini payqab, sevib qoladi. Shiva uylanib, ularning to'y marosimida barcha xudolar qatnashadilar. Tez orada Parvati urush xudosi bo'lmish Skandani dunyoga keltiradi. U katta bo'lgach, yovuz Taranani o'ldiradi.

Janubiy Hindistonda xuddi shunga o'xshash afsona bo'lib, unda Shiva va Maduray hukmdorlaridan birining qizi Minakishning to'yi to'g'risida gapiriladi. Ushbu voqyealarga va afsonalarga bag'ishlab, Janubiy Hindistondagi eng mashhur va ulug'vor ibodatxonalardan biri qurilgan.

Hindistonda Ona-xudolarga hamma vaqtlarda va davrlarda hurmat bilan qarashgan. Ilk teologiyada onalar obrazlari noaniq va «tuman»li bo'lgan, Guptalar davrining boshlariga kelgach, alohida ibodatxonalarda ularga sig'ina boshlagan.

Shu vaqtdan e'tiboran ona-xudolarning ahamiyati osha boradi. Faqatgina Shimoliy Hindistonga musulmonlarning kirib kelishi bilan hamda ortodoksol vishnuizmning to'liqini oqibatida vaqtinchalik ona kultining rivojlanishi to'xtab qoladi. Hozirgi vaqtda Bengaliya va Assamda ushbu kult ommabopdir; Hindistonning ayrim hududlarida ham ma'lum.

Ona-xudo kultining asosiy formasi Shivaning xotiniga sig'inish bo'lib, uni Parvati («Tog'lar qizi»), Maxadevi («Buyuk xudo»), Sati («Yaxshilik keltiruvchi»), Gauri («Oq»), Annapurna («Taomlar sovg'a qiluvchi») yoki oddiy qilib Ona (tamil. «ammai») deb murojaat qilingan. Qo'rqitish aspekti

orqali uni Durga («Yengilmas»), Kali («Qora») va Chandi («Johil») deb atashadi.<sup>20</sup>

Vishnu, Shiva va Durgadan tashqari ko'plab boshqa xudolarga sig'inganlar. Vedalar davri xudolaridan farqli hinduizmning yangi xudolari tabiat hodisalar bilan uzviy bog'liq bo'lmay, antropomorfizm rivojlangan.

Vedalardagi ko'p sonli quyosh xudolari hinduizmida yagona Surya («Solnse» - «Quyosh») xudosiga birlashadi.

Vedalardagi urush xudosi Indra, o'zining asosiy ahamiyatini yo'qotadi, biroq qator yangi atributlarni o'ziga mujassamlashtirdi. O'zining fili Ayravata ustida o'tirib, dunyoning sharqiy qismini qo'riqlab turgan hamda pastki osmon – Amaravatining hukmdori bo'lgan.

Boshqa nom, ya'ni Shakra nomi bilan u ilk buddizmning asosiy xudolari qatoriga kirib, Braxmadan keyingi ikkinchi o'rinda turgan.

Varuna – suv xudosi bo'lish uchun o'zining osmon qasridan tushgan, hamma narsani ko'ruvchi vedalar xudosi edi va shu bilan birga Olamning g'arbiy qismini qo'riqlovchisi ham edi. Varuna kulti erta so'nadi.

Vedalardagi o'lim xudosi, janubiy tomon qo'riqchisi Yama alohida kult sifatida qaralmasa-da, uning roli bir muncha o'zgaradi: u jannatning ijobiy hukmdoridan o'liklar podsholigida qattiqqo'l qozi sifatida namoyon bo'ladi. Ayrim vaqtlari Yamani misrlik Tot singari tarozi bilan tasvirlashadi.

Dunyoning shimoliy tarafi Kubera – qimmatbaho metallar, toshlar, minerallar va umuman boylik xudosi taftishida edi. ushbu xudo Vayshravana nomi bilan so'nggi veda adabiyotida eslanib, buddizm va jaynizmida yaxshi tanish. U Kaylasa tog'i yaqinidagi, qimmatbaho toshlar bilan qurilgan go'zal shahar – Alakada istiqomat qilgan. Uning qo'l ostida ko'p sonli gnomlar (guxyaka) va tog' jinlari (yaksha) armiyasi bo'lgan. U odam ko'rinishida – katta qorinli, tanasi karlik singari tasvirlanadi. Uning kulti keng qamrovli emas edi.

---

<sup>20</sup> Женщина в мифах и легендах. Энциклопедический словарь. –Т., 1992, 172-б.



Ushbu to'rt xudo: Yama, Indra, Varuna va Kubera – lokapallar sifatida, ya'ni boriqni saqlovchilar sifatida mashhur edi. So'nggi tekstlarda esa yana to'rtta saqlovchi oraliq viloyatlarga hukmroni edi: Soma shimoli-sharqda; Vayu (shamol xudosi) shimoli-g'arbda, Agni janubi-sharqda va Surya janubi-g'arbda. Ulardan Agni xudosi, epik poemalar davrida o'ta mashhur bo'lib, keyinchali esa sig'inuvchilar orasida o'ziing hokimiyatini yo'qota boradi.

Ganesha yoki Ganpati, ganlar yo'lboshchisi (Shivaning yarim ilohiy yordamchilari) – Shiva va Parvatining ikkinchi o'g'li hamda g'arbdagi hind xudolarining eng mashhuri. U fil boshli, katta qorinli qilib tasvirlanadi. Undan biron-bir ish boshlashdan oldin to'siqlarni olib tashlash, mushkullarni oson qilishini so'rab sig'inishadi: ko'ngilchan va rahmdil xudo – fil qariyb barcha hinduistlar, vishnuistlar va shivaistlar tomonidan tasarruf etiladi.

Xanuman – maymun xudo, Vayuning o'g'li, Ramaning haqqoniy do'sti – panteonga kiritilishidan ancha oldin keng, ommabop xarakterli xudolardan edi. U hozirda ham o'zining katta ta'sirini yo'qotmay, inson tanasi bo'lgan maymun ko'rinishidagi qishloq xudolaridan biri. Xanuman – rahmdil jin, qo'riqllovchi va unga bag'ishlab maymunlar muqaddas jonivor deb hisoblanadi.

Kama («Xohish», «Istak») – u ko'pgina boshqa nomlar va epitelar orqali mashhur bo'lgan hindlarning sevgi, muhabbat xudosi. U ham o'zining yevropalik ukasi Amurga o'xshab, yosh yigitcha ko'rinishida tasvirlanadi. U ham o'q va kamon bilan qurollangan bo'lsa-da, hind erotining kamoni shakarqamishdan yasalib, asalarilar to'dasi bilan qurshalgan, o'q o'rnida esa gullar xizmat qilgan. Uning xizmatida nimfalar (apsar) bo'lib, ulardan biri Kamaning dengiz maxluqi tasviri tushirilgan bayroqni ko'tarib yurgan. Kamaning o'qlari gullardan bo'lib, xudolarni ham, insonlarni ham birdek bartaraf etgan, faqatgina bir marta buyuk xudo Shivada hissiyotlarni tug'dirish uchun harakat qilganda, u yoqib yuborilinadi. Sevimli rafiqasi Gatining iltimoslariga ko'ra uni yana hayotga qaytarishadi. Kama ko'pincha adabiyotlarda esga olinadi. Unga atab har yili katta bayramlar uyushtirilgan, yigitlar va qizlar orasida ommabop bo'lgan.

Lakshmi («Baxt») Vishnuning rafiqasi, ko'pincha Shri nomi bilan atashgan; omad hamda baxt xudosi edi. Ayrim afsonalarga qaraganda, u Vishnu bilan bir vaqtda paydo bo'gan bo'lsa, boshqa bir afsonalarda Afroditadek ibtidoiy ummondan chiqib kelgan degan, qarashlar bor. Odatda, u qo'lida nilufar gulini ushlagan holda, nilufar gulining ichida o'tirgan go'zal va jozibador ayol ko'rinishida tasvirlangan. Uning yonida ikkita fil unga suv purkab turishgan. Lakshmi alohida kult obykti sifatida ko'rinmasa-da, u tasvirlangan ko'p sonli «ikona»lari ikkinchi darajali xudo sifatida keng qo'llab kelishgan.

Braxmaning rafiqasi Sarasvati san'at, musiqa va adabiyot rahnamosi sifatida alohida mustaqil rol o'ynagan. «Rigveda»da ushbu nomi bilan muqaddas daryo atalgan, so'nggi vedalar adabiyotida Vaya («Nutq») xudosi sifatida katta ahamiyat kasb etgan. U yosh, go'zal, oq tanli ayol ko'rinishida, ko'pincha, hind udi hamda qo'lida kitob bilan tasvirlangan. Uni oqqush kuzatib yurgan. Odat bo'yicha u sanskrit tilini va devanagari xatini kashf qilgan deb qaraladi. Sarasvati hamisha olimlar, yozuvchilar hamda musiqachilar tomonidan qadrlanadi; uning kulti hozirgacha so'nmagan.

Yuqorida ko'rib o'tgan qudratli xudolar bilan birga juda ko'plab unchalik ahamiyat kasb etmagan xudolar mavjud edi. har bir qishloqning mahalliy xudosi bo'lgan; ko'pincha ulardan muqaddas daraxt ostida qo'yilgan qo'pol but yoki fetish shaklida edi. Ayrim qishloq hosildorlik xudolari assimilyasiya natijasida ommabop xarakterga ega bo'ldi. Qadimgi Hindistonda antik dunyodagi kabi har shahar o'zining xudo-qo'rqichilariga ega edi, qaysikim ular ayrim vaqtda panteonda muhim ahamiyat kasb etgan. Mahalliy xudolardan tashqari ko'plab rahmdil va yovuz yarimxudolar va ruhlar ham mavjud edi.

Ilon ruhlar (naglar), yarim odam – yarim ilonlar (ular ilon dumli edi) eng qadimgi davrdan e'tiboran kult obykti edi. Ular Bxagavati deb nomlangan ajoyib shaharda yashab, son-sanoqsiz boyliklarni qo'riqlab yotganlar; ularning ko'nglini ola bilgan ayrim insonlargagina qimmatbaho buyumlardan taqdim etilgan. Ular inson timsoliga ham kira olishgan hamda Hindistondagi ko'pgina

sulolalar, o'zlarini qahramon – inson va nagina, ayol-ilondan tarqalganlar deb hisoblaganlar. Naginalarning prototiplari bo'lib, ibtidoiy qora tanli qabilalar bo'lishi mumkin, qaysikim ular bilan oriylar Hindistonga kirib kelishganida to'qnashgan bo'lishi mumkin; naglar millatining rivojlanishining ibtido pog'onasida turgan uyushmalari Assamda hozirda ham mavjud. Ilonlar kulti Hindistonda o'ta keng tarqalgan; naglarning mifik obrazlari, albatta, ko'pchilik holda tub joy ilonlar kultini Hindistondagi ko'pgina qabilalarining sig'inishidan deb bilamiz.

Yakshilar xudo Kubera bilan assosiasiya qilinadi hamda qishloq aholisi ularni gnomlar yoki elflar deb sig'inishgan. Milodimizgacha ularning kulti keng tarqalgan edi, biroq hinduizmning buyuk xudolariga bo'lgan sig'inish ko'paya borgan sari ularning ahamiyati yo'qola boradi. Yakshilar odatda insonlarga xayrixohlik bildirganlar, lekin ularning ayollari – yakshinilar yovuzlik qilishganlar hamda kichik bolalarni yeganlar.

Gandxarvalar vedalar matnlarida esga olinadi; ular Indraning xizmatkorlari va osmon musiqachilari edi. Budda davrida uni bola tug'ilishida yordam berishiga hamda bolaning paydo bo'lishiga ishonishganlar. Ular bilan bog'liq holda kannarlarni ham e'tirof etganlar. Ular odam boshli va ot tanali osmon musiqachilari edi; antik davrdagi kentavrlarga o'xshash, balki ular bilan ayrim bog'liqligi bo'lishi mumkin.

Gandxarvalar erkak jinsidagi xudolar edi. Ularning ayol jinsidagilari apsaralar yoki apsaralar edi; vedalar davrida suv bilan bog'liq bo'lsa, keyinchalik osmonga ko'chiriladi. Ular o'ta go'zal bo'lib, ularning yaxshi ko'rgan mashg'uloti – meditasiya bilan shug'ullanayotgan asketlarni yo'ldan urish. Xuddi shunday apsara Menaka buyuk donishmand Vishvamitrani yo'ldan urib, Shakuntalani dunyoga keltiradi – mashhur Kalidasa dramasi qahramoni.

Yarimxudolarning keyingi guruhida vidyadxara vakillari bo'lib, osmon sehrgarlari – sirli mavjudotlar, Himolaydagi sehrli shaharlarda yashovchilardir.

Vedalaridagi munilar singari ular havoda ucha olib, xohishlariga qarab o'zgara olganlar. Ular insonlarga nisbatan xayrixoh edilar.

Rishi («donishmand» yoki aniqrog'i «bashorat qiluvchi») – vedalar gimnlarining tuzuvchilari (avtorlari), shuningdek, xudolar holatidagi osmonga chiqarib qo'yilgan, qadimgi davrning afsonaviy donishmandlari. Katta Ayyiq turkumidagi yulduzlarga o'xshatilgan asosiy rishilar: Marichi, Atri, Angiras, pulastya, pulaxa, Kratu va Vasishtxa. Muhim rollarni Kashyapa va Daksha rishilari o'ynagan; afsonalarda aytilishicha, ular xudolar va insonlarning ajdodlari bo'lishgan. Musiqa homiysi narada; o'zining axloqi va asketizmi bilan kshatriydan braxmanga o'tgan Vishvamitra, xudolar va shaytonlarning murabbiysi, vedalar davrida xudo, keyinchalik rishi darajasiga tushirilgan Brixaspati (uni Yupiter planetasi bilan tanglashtiriladi; materialistik falsafiy tizim va davlatni boshqarish ilmining asoschisi deb hisoblashgan) va nihoyat Agastya – janub xalqlariga din va madaniyatni bergan rishilar e'tirof etiladi.

Birmuncha sustroq ahamiyat kasb etgan katta avliyolar guruhi – siddxlar bo'lib, o'zlarining taqvodor – xudojo'yiligi bilan osmonga chiqariladilar.

Yovuzlik ruhlari orasida asurlar yoki shaytonlar asosiysi edilar. Vedalar davrida «asura» so'zi aniq bir xudolarga tegishli bo'lsa, hinduizm da esa xudolar bilan doimiy dushmanlashgan g'ayritabiiy mavjudotlar guruhiga aytilgan. Insonlar uchun har xil turdagi jinlarning xavfi ko'proq edi, masalan, rakshaslar; ular orasida eng mashhuri Ravan bo'lib, u Lanka shohi edi. U o'n boshli shayton obrazida ko'rinib, Rama tomonidan o'ldiriladi. Bir qanchagina rakshaslarga shunday kuchga ega edi, ularning barchasi xavfli bo'lib, insonlarga qo'rqinch tuyg'usini solar edi.

Kechasi hayoliy ruhlar (preta, bxuta), odamlarning yalang'och ruhlari aylanib yurishar edi; ular zo'rlik yo'li bilan o'ldirilgan insonlar ruhi bo'lib, hali tirik bo'lgan qarindoshariga xavf solar edilar.

Hinduizm kulti xudolar va yarim xudolarni rahm-shafqatli qilish bilan chegaralanmagan, aniq bir ma'noda butun tabiat o'zida ilohiylikni jamlagan. Buyuk insonlar va avliyo hayotligida ham, o'limidan ancha keyinroq ham

hurmat qilingan, bu bilan ilohiylikning bir bo'lagi ko'rsatilgan. Xuddi shunday misol tamillar shivaizmining 63 nayanarlari va tamillari vishnuizmining 12 alvarlari to hozirgacha yarim xudolar sifatida tan olinadi. Nafaqat insonlar, balki hayvonlar, shuningdek, o'simliklar ham shu bugungi kungacha muqaddas hisoblanib keladilar. Masalan, sigir afsonaga ko'ra, barcha sigarlar onasi Surabxi, kosmik ummondan paydo bo'lgan boyliklarning biri edi. Sigirdan olinadigan beshta mahsulotning barchasi katta tozalovchi xususiyatga ega. Sigir muqaddas hisoblansa-da, sigir-xudo yo'q edi, ularga atab ibodatxonalar qurishmaganlar. Har qanday sigir hurmat qilingan, qadrlangan. Ho'kizlar ularga qaraganda ko'proq qadrlangan, chunki unda Shiva minib yurgan. Nanding tasviri ko'pchilik shivaitlarning ibodatxonalarida aks ettirilgan, e'tiqodlar qiluvchilar unga atab sovg'alar keltirishadi.

Qadimgi Hindistonda sigirdan so'ng ilon qadrlangan. Afsonaviy ajdarholar – Shesha, Vasuki va ularga o'xshashlar – ilon obrazini ko'tarilishiga turtki bo'lgan, ularning kulti eng qadimgi ibtidoiy davrga borib taqaladi. Ilonlarga qurbonlik qilish, hinduzimda, yomg'irlar mavsumida qilinib, oddiy ro'zg'or udumlaridan edi. Chumoli uyumlarini ilonlar makoni hisoblashgan.

Dunyoning boshqa qadimgi xalqlari kabi daraxt kulti Hindistonda ham tarqalib, qaysikim, butazori bo'lgan. Gippala yoki ashtaxxa (anjir) eng muqaddas daraxt hisoblangan. Qolganlari ozmi-ko'pmi qadrlangan. Ashoka daraxtiga farzand ko'rmoqchi bo'lgan ayollar sig'inishgan; tulasi o'simligi rayhonga o'xshab ketadi, u Vishnu kulti bilan bog'liq. Uni hozirgacha hinduizmga sig'inuvchi ko'pgina uylarda ekib kelishadi. Vedalar davridan kusha va daroxa o'tlari muqaddas hisoblangan. Biroq vedalardagi soma o'simligi unutiladi.

Qaysidir bir ma'noda tepaliklar va tog'lar, ayniqsa, Himolay tog'i muqaddas hisoblangan. Osmono'par tog'larda xudolar yashagan: Vaykuntxida, Vishnu, Kaylasada, Shiva istiqomat qilishgan degan qarashlar mavjud.

Daryolar ham muqaddas hisoblanib, birinchi navbatda, albatta, Ganga e'tirof etilib, uni Vishnuning tovonidan oqib tushadi; Somon yo'li sifatida

(Mandakini) osmonda oqadi; keyin esa Shivaning sochlaridan yerga oqib tushadi deb sanaganlar. Ganga o'zining ulkan irmog'i Yamuna (Jamna), shekilli, alohida xudo sifatida qaralgan. Qolgan daryolar orasida Sarasvati, qaysikim, afsonalarga qaraganda yer ostida oqib, Ganga va Jamnalarning quyilish joyida, Prayaga (Allahabad) oldida birga qo'shiladi; Narmada, Godavari, Krishna (hozirgi Kistna) va Kaveri muqaddas hisoblanadi. Ayrim ko'llar, ayniqsa, Himolaydagi Kaylasa tog'i yonidagi Manasa hamda Adjmera yaqinidagi Pushkara ko'llari muqaddas hisoblanadi. Hatto shaharlar ham muqaddas deb sanalgan.

Upanishadlar davrida ishlab chiqilgan karma haqidagi ta'limot buddizm va jaynizm tomonidan qabul qilingan, shuningdek, hinduizmning bo'linmas qismi bo'lgan. Hinduizmning aniqlab berishicha, karma (aynan «ish» yoki «ish yoki yumush qilmoq») tanani aniqlab beradi – inson, hayovon yoki jahannam – keyingi hayotini, qayerda bo'lishini aniqlaydi. Oldingi karmadan, insonning xarakteri, taqdiri, ijtimoiy holati, uning xursandchiligi va g'amlari bog'liq bo'lgan. Har bir yaxshi ish, albatta, ertami yoki kechmi baxtga olib keladi, yovuz ishlar esa baxtsizlik keltiradi.

Karmaga ishonch fatalizmga olib kelmagan. Hinduizm g'oyalarida fatalizm ko'pincha olqishlanmagan; Biz karma qonunlaridan qochib ketolmaymiz, biroq aql bilan ish yuritsak va ko'ra-bila olsak, ushbu qonunni o'zimizning maqsadlarimizda ishlata olamiz.

Transmigrasiya jarayoniga turli xil tushuntirishlar beriladi, biroq barcha maktablar bir to'xtamga kelishadi, ya'ni jon, ruh bir tug'ilishdan boshqasiga o'tayotganida yalang'och holatda emas, balki bir yoki bir qancha qobiqlar bilan o'ralgan holda o'tadi. Qobiqlarning holati oldingi xayrli yoki yovuq ishlariga bog'liqdir. Transmigrasiyaning yupqa tanasi sezish organlaridan ayridir.

Sansara – bir tanadan ikkinchisiga doimiy o'tib turishidir va hinduizm transmigrasiyadan ozod bo'lishga intiladi.

## XULOSA

Hindistondagi eng qadimgi yodgorliklar er. avv. III-II ming yilliklarga oid bo'lib, ular Hindistondagi diniy qarashlar to'g'risida ma'lumot beradi: bu hind sivilizatsiyasi yodgorliklari – Hind daryosi havzasidagi Maxenjo-Daro va Xarappa madaniyatlari edi. Ular hind olimi Banerdji va inglizlar Marshall va Makkeylar tomonidan ochilib (1922 y.) o'rganiladi.

Ushbu madaniyat murakkab hamda ulug'vor bo'lib, u dehqonchilikka asoslangan, rivojlangan bronza metallurgiyasi va boshqa hunarlari bor; toshdan yasalgan shahar inshootlari mavjud, ilk yozuvining harakatlari mavjud madaniyat edi.

Hind sivilizatsiyasi quruvchilarining dini haqida taxminlar qilsa bo'ladi. Ko'p sonli tosh muhrlarda hayvonlarning, ko'pincha, ho'kiz, fil, yo'lbars kabilarning tasvirlari tushirilgan. Hayvonlarning haykal tasvirlari ham mavjud. Hayvonlar kultining qandaydir bir fomasi, hatto totemistik qoldiqlar (ular hozirgi kungacha Hindistondagi dravid qabilalarida saqlangan) mavjud. Daraxtlar kulti izlari bor. Odamlar figurkalar – ayollar va erkaklar topilgan; ular ham ilohalar obrazlarida mavjud uch yuzli va shoxli erkak tasviri bor figurkalar topilgan; ayrimlar uni so'nggi davrdagi xudo Shiva bilan bog'laydilar.<sup>21</sup>

Ibodatxonalar topilmagan, biroq oblisovkali g'ishtdan qurilgan basseynlar – hovuzlar alohida uylarda kichik razmerlarda va bitta katta hovuz (12x7 metr) topilib, aholi marosimiy yuvinishlar bilan shug'ullanganlar, qaysikim, hozirda ham ushbu urf-odatlar Hindistonda davom etmoqda.

Hindiston xalqari dini to'g'risidagi ko'plab ma'lumotlarni oriy qabilalarining shimoliy-g'arbiy Hindistonga kirib kelishi bilan paydo bo'lgan yodgorliklar tufayli qo'lga kiritamiz.

Hindiston dini tarixini o'sha davrdan to bizning kunlarga, odatda, 3 davrga: vedalar, braxmanlar va hinduizm davrlariga bo'lamiz.

---

<sup>21</sup> Маккей Э. Древнейшая культура долины Инда. –М., 1961, 67-бет.

Birinchi davr qadimgi diniy tekstlar nomi bilan vedalar davri deyiladi. Ushbu tekstlar Yevropa tillariga tarjima qilinib, XIX asrning birinchi yarmidan boshlab E.Byurnuf va Maks Myuller tomonidan o'rganila boshlanadi. Aynan vedalarning o'rganilishi fanda din haqida mifologik maktabning paydo bo'lishiga turtki bo'ladi.<sup>22</sup>

Vedalar davri dini, umuman olganda, o'zining oddiyligi va soddaligi bilan ajralib turadi. Ushbu dinning markazida – qurbonlik qilish yotadi. Xudolar obrazlari ko'psonlidir va ularning ko'pchiligi tabiat ko'rinishlarini ifoda etadi, biroo'q har bir marosimning o'zining xudosi bo'ladi. Avvallari xudolarning ko'plari qabila xudolari edi.

Erkak xudolarning to'lasincha ustun kelishi va qariyb ayol xudolar – ma'budalarning yo'qligi, jamoada patriarxal tuzumining mavjudligini ko'rsatadi.

Vedalarda muqaddas joylar ham, ibodatxonalar ham eslab o'tilmaydi. Qurbonliklar uyda yoki ochiq osmon ostida, alohida qurbonlik joylarida keltiriladi. Xudolar ko'rinishi ham e'tirof etilmagan. Professional kohinlik to'g'risida ma'lumotlar yo'q.

Ushbu sodda din urug'-qabilaviy jamoa tuzumiga o'tishni ko'rsatadi.<sup>23</sup> Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikning boshlarida Hindiston xalqlari hayotida muhim o'zgarishlar ro'y beradi. Hind va Gang daryolari havzalarini o'zlariga bo'ysundirgan oriylar, bu yerda qator despotik ilk quldorchilik davlatlar yoki knezmeklarga asos solib, o'troq dehqonchilik xo'jaligiga o'tadilar. Ushbu o'tish oriylargacha bu yerda yashagan mahalliy xalqlarning (dravid va mundalar) kuchli ta'siri ostida bo'lgan bo'lishi mumkin. Bu esa keyinchalik Hindistonning madaniy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi, qaysikim, buni biz diniy qarashlarda ham ko'ramiz. Bu davrga kelib kasta tizimi paydo bo'ladi. Ushbu tuzum Hindistondagi qonunchilik va diniy yodgorlik bo'lmish – Manu Qonunlarida aks etadi. Ushbu to'plam er. avv. V asrda tuzilib

---

<sup>22</sup> Токарев С.А. Религия в истории народов мира. –М., 1965, 306-бет.

<sup>23</sup> O'sha asar, 313-бет.



(keyinchalik yoziladi), Hindistonning ijtimoiy tuzumi kodeksi sifatida keyingi asrlarda ham ishlatiladi. Unda nafaqat hind jamiyatining kastachilik tuzumi, balki diniy jihatdan ochib ko'rsatiladi va mustahkamlanadi.

Mannu kodeksiga ko'ra, braxmanlar (braminlar) hukmron kasta hisoblanadi. Braxmanlar kastasining ilohiylashtirilishi – kastachilik tuzumi kodeksining yorqin jihati edi. Kastalar xudo tomonidan qo'yilganlar, deb Manu qonunlarida ta'kidlanadi.

Hindiston dini tarixidagi butun ushbu davr braxmanlar davri deb nomlanadi.

Braxmanlarning kuchayishi bilan ularning kulti murakkablashadi. U Hindiston jamiyati aristokratik kastachilik tuzumini yaqqol namoyon etadi. Veda gimnlaridagi tabiat kuchlarini tasvirlayotgan xudolar ikkinchi darajali bo'lib qoladi. Endilikda oliy xudo – Braxma bo'ladi.

Boshqa xudolardan endilikda asosiylari Vishnu vash iva bo'lib qoladi. Har bir erkak xudo o'zining ayol juftini oladi. Vishnu ma'buda lakshmi bilan, shiva ma'buda Parvati (qaysikim, uni Durga, Kali deb ham atashgan) bilan bog'lanadi.

Vedalar dinidan ota-bobolar ruhiga sig'inish saqlanib qoldi. Mannu Qonunlarida ushbu sig'inish xudolarga bo'lgan sig'inishan ustun qo'yilgan.<sup>24</sup>

Umuman olganda, Hindiston dii braxmanlar davrida vedalar dinining davomi bo'lgan. Undan braxmanizm ham narsa qoladi: Vedalarga bo'lgan muqaddas ishonch, bir necha xudolarning nomlari va quronlik marosimlari. O'zining ruhi va kastachilik xarakteriga ko'ra braxmanizm vedalar dinidan keskin farq qiladi. Braxmanizmning ko'pgina qarashlari oriylargacha bo'lgan tasavvurlar bilan bog'liq.

Bir-biri bilan kurashib kelayotgan diniy oqimlarning rivojlanishi nafaqat hukmdor tabaqalar o'rtasida, balki keng omma orasida kastachilik zulmiga qarshi harakatlarga olib keladi.

---

<sup>24</sup> Токарев С.А. Религия в истории народов мира. –М., 1965, 316-бет.

Xuddi shunday oqimlardan buddizm va jaynizm bo'lib, ular qariyb bir vaqtda – er. avv. VI-V asrlarda paydo bo'ladi. Ushbu ta'limotlar bir-biriga yaqin edi, lekin ularning taqdiri turlicha bo'ldi.

Jaynizm ta'limoti: barcha moddiy dunyo yovuzlikdir va inson undan qutilishi kerak deb o'rgatadi. Bu yerdan esa qat'iy asketizm kelib chiqadi; jaynistlarning eng ta'limotga berilganlari, hatto kiyim kiyishdan bosh tortishadi (digambarlar – yorug'lik bilan kiyinganlar), uylanmaslik, hych bir jonzotlarni o'ldirmaslik ta'lim beriladi. Jaynizm asosan savdogarlar va shahar aholisi orasida tarqalgan edi. bu ta'limot hozirgacha Hindistonda saqlanib qolgan, lekin buddizm singari chetga chiqib ketmagan.

Buddizm esa jaynizmga nisbatan ancha kengroq tarqaladi, sababi, undagi talablar ancha yumshoqroq edi. Mauriylar sulolasi va Kushonlar davrida davlat dini sifatida maydonga keldi. Bu esa kohinlar kastasi bo'lmish braxmanlarning oldingi mavqeyiga xavf soladi.

Braxmanlarning buddizm bilan bo'lgan kurashi kastachilik tuzumini saqlab qolish uchun edi. Braxmanizm bu kurash uchun qayta qurollanishi kerak edi. Qat'iy aristokratik xarakterga ega bo'lgan, ooma bilan chiqishmagan braxmanlar dini xalq orasida ta'siri kuchsiz edi. Kult va ta'limotni xalqning ehtiyojlariga qarab qayta ko'rib chiqib, moslashtirish kerak edi. Shuning uchun Hindiston dinida yangi davr boshlanib, uni hinduizm davri deb ataymiz.

Kult ancha demokratlashtiriladi: keng omma ta'sir etish usullari ishlab chiqiladi. Buning uchun xalq bevosita sig'inish marosimlarida ishtirok etishini ta'minlash kerak edi.

Bu davrda Hindistonda birinchi ibodatxonalar quriladi: stupala rva chaytyalar (yerosti ibodatxonalar) quriladi.

Xudolar haqidagi tasavvurlar ham demokratlashadi. Faqat braxmanlar bilan so'zlashadigan xudolar, xalqqa sust taassurot ko'rsatadi. Xudolarni xalqqa yaqinlashtirish kerak edi, xalq xudolari obrazini, xalq qutqaruvchilari obrazlarini yaratish kerak edi.

Avatarlar (gavdalanmoq) to'g'risidagi o'ziga xos ta'limotlar paydo bo'ladi; har bir osmon xudosi o'zining yerlik avatariga ega bo'lishi mumkin edi. Ayrim avatarlar ommabop xalq xudolariga aylanadi. Ularning bir qismi buddistlar panteoniga taassub solib, xalqqa kuchliroq ta'sir ko'rsatish uchun yaratiladi. Ulardan mashhuri Krishna – qutqaruvchi bo'lib, Vishnuning avatarlaridan biri edi. Buddaviylar afsonasiga o'xshab, uning ham yerda tug'ilishi vujudga keladi. Uning qahramonliklari, insonlarga nisbatan mehr-oqibatlilik, uning yerdagi o'limi to'g'risida gapiriladi. Janubiy Hindistonda xuddi shunday xudo – qutqaruvchi Rama bo'ladi. U qadimgi hind eposi «Ramayana»ning qahramoni, Seylonning qo'lga kiritilishidagi oriylar yo'l boshchisi edi.

Diniy qarama-qarshiliklar, sektalarning o'ta rivojlanib ketishi, Hindiston jamiyatining parchalanishini ko'rsatadi.

Hinduizmni yagona din deb bo'lmaydi: bu bir qancha bir-biridan farq qiladigan dinlar yig'indisi edi.

Diniy tashkilotlarning turli-tumanligi va bo'linganligi Hindiston tarixining barcha etaplarida uning rivojlanishiga xalaqit bergan.

Hozirda Hindistonning diniy hayotida turli-tuman sig'inish dinlari va kultlarini ko'ramiz: diniy-falsafiy metafizik tizimga ega bo'lgan Veranta, Shiva, Vishnu va Krishna kabi xalq kullari va qo'pol orgaistik urf-odatlar va hokazolarni ko'ramiz.

Hinduizm hamma vaqt din erkinligi bilan ajralib turgan, shu bilan bir vaqtda boshqa qabila va xalqlarning kultarini o'ziga singdira olgan.

Biroq hinduizm boshqa xalqlarning ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatgan va kursatib kelmoqda. Ayniqsa, din va diniy falsafaning ta'siri Yevropa va Amerika intelligensiyasining ayrim qatlamlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Ularning ko'pchiligi hozirda ham, masalan, yoglar ta'limotiga qiziqadilar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Avdiyev V.I. Qadimgi Sharq tarixi. –Toshkent, 1964.
2. Antonova K.A, Bongard-Levin G.M., Kotovskiy G.G. Istoriya Indii. –M., 1979.
3. Beshem A. Chudo, kotorim bila Indiya. –M., 1977.
4. Dmitriyeva N.A., Vinogradova N.A. Iskusttova drevnevo mira. –M., 1989.
5. Jenshina v mifax i legendax. Ensiklopedicheskiy slovar. –T., 1992.
6. Istoriya drevnevo Vostoka. V.I.Kuzishin tahriri ostida. –M., 1979.
7. Makkey E. Drevneyshaya kultura dolini Inda. –M., 1961.
8. Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi. –Toshkent, 2009.
9. Рубинштейн Р.И. Древний Восток. –M., 1974.
10. Токарев С.А. Религия в истории народов мира. –M., 1965.
11. Z.M.Islomov, N.A.Muhamedov. Dinshunoslik- T.2016